

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТЫ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Bitiruv

So'nggi yillarda ichki ishlar organlarida amalga oshirilgan tizimli islohotlar samarasi o'laroq, IIV Akademiya-si yuqori malakali kadrlar tayyorlaydigan zamonaviy ta'lim muassasasiga aylan-di. Kunduzgi ta'lim baka-lavriatida ixtisoslik yo'na-lishlari kengaytirilib, kadrlar tayyorlashning yangi mexa-nizmlari amalga tatbiq etildi. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan dual ta'lim tizimi doirasida kursantlar nazariy bilimlarni bevosita amaliyot bilan uzviy bog'lagan holda egallashi uchun zarur sha-roitlar yaratildi.



XIZMATINGGA SHAYMIZ, VATAN!



Poytaxtimizdagi «Jar» sport-sog'lomlashtirish kompleksida IIV Akademiyasi bitiruvchilariga diplom va ofitserlik unvonlarini tantanali top-shirishga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Bitiruv marosimida Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov, Oliy Majlis Senati a'zolari, Qonunchilik Palatasi deputatlari, huquqni muhofa-za qiluvchi organlar va harbiy tuzilma-lar mas'ul xodimlari, IIV Jamoatchilik kengashi vakillari, soha faxriylari hamda bitiruvchilarning ota-onalari ishtirok etdi.

(Davomi 2-betda.)

USHBU SONDA:

AHOLI XATLOVI
ochib bergan manzara



«RAQAMLI» OG'RIQLAR



PESHAG'ORDA BO'LGANMISIZ?



(Davomi.
Boshlanishi 1-betda.)

Vazir, general-leytenant Aziz Tashpulatov o'z nutqida muhtaram Prezidentimiz tomonidan yosh kadrlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida yaratilayotgan imkoniyatlarni alohida qayd etib, yosh ofitserlarni xizmat burchiga sodiq qolishga chaqirdi.

Shundan so'ng vazirlik rahbariyati va nufuzli mehmonlar tomonidan bitiruvchilarga diplomlar tantanali ravishda topshirildi.

Qayd etish lozimki, joriy yilda Akademiyaning jami 900 nafar kursant tamomlagan bo'lsa, ularning qariyb 100 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi. E'tiborlisi, 33 nafar bitiruvchi o'qishni imtiyozli diplom bilan yakunladi, ulardan ikki nafariga muddatidan oldin «katta leytenant» maxsus unvoni berildi. To'rt nafar bitiruvchi Ichki ishlar vaziri stipendiyasiga, bir nafari Jaloliddin Manguberdi, ikki nafari Cho'lpon nomidagi

XIZMATINGGA SHAYMIZ, VATAN!



davlat stipendiyalariga sazovor bo'ldi. Shuningdek, 10 nafar kursant «Akademiya a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Bitiruvchilarning 127 nafari milliy va xalqaro miqyosdagi fan tanlovlarida yuqori o'rinlarni egallagan bo'lsa, 30 nafari jahon, qit'a va respublika sport musobaqalarida medallarni qo'lga kiritdi.



Marosimda so'zga chiqqanlar yosh xodimlarni qutlab, ularga kelgusi xizmat faoliyatida qonun ustuvorligini ta'minlash, adolat mezonlariga tayanish va «inson qadri – ulug'» tamoyili asosida fuqarolarning huquq va erkinliklarini qat'iy himoya qilish mas'uliyatini eslatib o'tdilar.

Endilikda Akademiya bitiruvchilari joylardagi ichki ishlar organlarida o'z xizmat vazifalarini bajarishga kirishadilar.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.
Abu KENJAYEV olgan
suratlar.

Forum

KELAJAKNI YOSHLAR QURADI

Ichki ishlar organlari yosh xodimlari va harbiy xizmatchilarining «Yangi O'zbekistonni yoshlar quradi» shiori ostidagi VI Respublika yoshlar forumi bo'lib o'tdi. G'ayrat-shijoatli yoshlarni Samarqand shahrida birlashtirgan forum doirasidagi tadbirlar ishtirokchilarda boy va yorqin taassurotlar qoldirdi.



Shaxsiy tarkibning jismoniy va jangovar shayligini ta'minlash masalasiga dolzarb vazifa sifatida qaraladi. Shu bois forum dasturidan o'rin olgan sport musobaqalari qizg'in va murosasiz kurashlarga boy o'tdi. Xususan, kuch va mahorat sinalgan «Jangovar marsh» bellashuvida Navoiy viloyati IIB jamoasi tengsiz deb topildi. Keyingi sovrinli o'rinlarni IIV Qorovul qo'shinlari hamda Samarqand viloyati IIB vakillari band etdi.

Kuch, chidamlilik va tezkorlikni talab etgan «Kross-fit» musobaqasida Andijon viloyati IIB yosh xodimlari yuqori natija bilan faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'rin mezbonlarga nasib qilgan bo'lsa, kuchli uchlikni Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV jamoasi yakunlab berdi.

Xotin-qizlar o'rtasida tashkil etilgan «Eng yaxshi paramedik» musobaqasi ham yuqori tayyorgarlik ostida o'tdi. Unda IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamentining yosh xodimlari zafar quchib, birinchi o'rinni egalladi.

E'tiborlisi, bu yilgi forum doirasida ilk bor yigitlar o'rtasida «Kelajak o'yinlari» musobaqasi o'tkazildi. Jismoniy va jangovar elementlarni o'zida uyg'unlashtirgan mazkur bellashuv shartlariga ko'ra, 5 nafar xodimdan iborat jamoalar belgilangan hudud va vaqt chegarasida «dushman»ni mahv etish mahoratini namoyish qilishdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, Sirdaryo viloyati IIB jamoasi g'olib deb topildi.

Shuningdek, voleybol musobaqasida ham jamoalarning chaqqonligi, mahorati



va o'zaro hamjihatligi yaqqol ko'zga tashlandi. Mazkur sport turida Jazoni ijro etish departamenti yosh xodimlari barcha raqiblarini dog'da qoldirib, g'oliblik shohsupasiga ko'tarildi.

Tizimda yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, tashabbuskor yetakchilarni rag'batlantirish maqsadida o'tkazilgan «Eng faol yoshlar yetakchisi» tanlovi ham qizg'in kechdi. Unda hududiy ichki ishlar organlari yoshlar yetakchilari o'zlarining istiqbolli loyihalari va amaliy tajribalari bilan o'rtoqlashdilar. Toshkent viloyati IIB



yoshlar yetakchisi, katta leytenant Asliddin Abduraimov eng yaxshi deb topilib, birinchi o'ringa loyiq ko'rildi. Forumning yana bir tadbirlaridan biri – «Zakovat» intellektual o'yini qadimiy Registon maydonida bo'lib o'tdi. Kitobxonlik, keng dunyoqarash va tezkor fikrlash sinalgan ushbu bahsda Surxondaryo viloyati IIB jamoasi mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'rinni Navoiy viloyati IIB, uchinchi o'rinni esa Sirdaryo viloyati IIB jamoasi band etdi.

– «Zakovat» intellektual o'yini bilimlarimizni yana bir bor sinovdan o'tkazish uchun haqiqiy mahorat maydoni bo'ldi, – deydi Surxondaryo viloyati IIB xodimi, mayor Jasur Hazratqulov. – Jamoamiz bilan birdamlikda harakat qilib, yuqori natijani qayd etganimizdan mamnunmiz.

Forum yakunida umumjamoaa hisobidagi g'olib va sovrindorlar aniqlandi. Unga

ko'ra, Samarqand viloyati IIB jamoasi mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi. Navoiylik yosh xodimlar ikkinchi, IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti vakillari uchinchi o'rinni egalladi.

– «Yoshlar oyli» doirasida tashkil etilgan mazkur forum biz uchun katta tajriba maktabi bo'ldi, – deydi Samarqand viloyati IIB xodimi, kapitan Hulkar Muhammadiyeva. – 17 ta jamoa orasida jamoamizning birdamlikdagi harakatlari evaziga kutilgan natijaga erishdik.

Forum yakunida musobaqalarda yuqori natijalarni qayd etgan ishtirokchilar va g'olib jamoalar Ichki ishlar vazirining o'rinbosari – Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti boshlig'i, polkovnik Diyorbek Sattarov tomonidan taqdirlandi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.

Hafta qahramoni

ALANGA QARSHISIDAGI JASORAT

G'ijduvon tumani Shimoliy Arablar qishlog'ida soat taxminan 18:00 lar atrofida to'satdan quyuq tutun ko'tarildi. Alanga tez sur'atda kuchayib, atrofdagi uy-joylarga ham xavf sola boshladi. Qishloq ahli sarosimaga tushgan bir paytda uzoqdan ko'tarilayotgan qora tutunni payqagan profilaktika inspektori, leytenant Abdullajon Qo'chqorov o'sha manzilga oshiqdi.

Bunday vaziyatda har bir daqiqa inson hayoti va mulki uchun hal qiluvchi ekanini anglagan yosh xodim zudlik bilan voqea joyiga yetib bordi. U avvalo, vahimaga tushgan fuqarolarni tinchlantirib, ularni xavfsiz hududga chiqarish choralari ko'rdi. Keyin esa qo'shni xonadondan suv tortib, alanganing eng kuchaygan qismiga sepishga kirishdi. Uning tezkor va qat'iy harakatlari tufayli qo'shni uy-joylarga yong'in tarqalishining oldi olindi. Ko'p o'tmay yetib kelgan yong'in-qutqaruv bo'linmalari bilan hamkorlikda olov to'liq o'chirildi.

– Otam yong'in sodir bo'lganini telefon qilib aytgach, darrov yetib keldim, – deydi fuqaro O.Jo'rayev. – Profilaktika inspektorining tezkor harakatlari sababli olovning boshqa turarjoy binolariga o'tib ketishining oldi olindi. Buning uchun Abdullajon-dan bir umr minnatdormiz.

Darvoqe, bu ofatdan hech kim tan jarohati olmadi, fuqarolarning uy-joylari va mol-mulki katta

talafotdan asrab qolindi. Mazkur holat yana bir bor shuni tasdiqladiki, tezkorlik, mas'uliyat va jasorat har qanday favqulodda vaziyatda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Leytenant Abdullajon Qo'chqorovning sa'y-harakatlari fuqarolar xavfsizligini ta'minlash yo'lida ichki ishlar organlari xodimlarining doimiy shay holatda ekanini, ularning har bir harakati inson hayoti va mulkini asrashga qaratilganini yaqqol namoyon etdi.

Lavhamiz qahramoni o'tgan yili IIV Akademiyasini tugatgach, tuman IIB JXX HPB profilaktika inspektori etib tayinlangan. U xizmat olib borayotgan «Tarxanon» MFYda 3600 nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Aholi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan mashg'ul. Shu bois ham hududda ishsizlik muammosi deyarli yo'q. Mahallada o'tgan oylar davomida jinoyat sodir etilmadi. Oilaviy nizolar onda-sonda uchrab tursa-da, darhol joyida yarashtirilgani yosh xodimning «qa-



notlari» mustahkamligidan dalolat beradi.

Mahalla raisi Sobir Jo'rayev ko'pni ko'rgan, ziyoli kishi. U Abdullajonga otalarcha g'amxo'rlik qilib, maslahat-u nasihatlarini ayamay kelyapti. Qolaversa, ustoz, mayor Bobir Homidov ham yosh profilaktika inspektorini har jabhada qo'llab-quvvatlab turadi.

– Abdullajon, ishlayotganiga ko'p bo'lmasa-da, bizni ortda qoldirdi. Uning hududi «yashil toifa»da. U uch

oylik yakuni bo'yicha avval tuman hokimining faxriy yorlig'i va mukofotiga loyiq ko'rildi, so'ng viloyat IIB rahbariyati tomonidan rag'batlantirildi, – deydi mayor B.Homidov. – Tushkunlikka tushgan fuqarolarga dalda bo'lgani va jamoat tartibini saqlaganidagi jasorati ham yuqorida aytilgan fikrimizning isboti bo'ldi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

Soha fidoyilari

«NEGA PUSHAYMONLIK KECH UYG'ONADI?»

Joriy yilning 11-iyun kuni soat taxminan 14:00 larda Toshkent shahri Yashnobod tumani hududida xizmat olib borayotgan Qo'riqlash xizmati tezkor harakatlanuvchi guruhi xodimlarining hushyorligi va professional harakatlari natijasida giyohvandlik vositalari bilan bog'liq holatning oldi olindi.



Kichik serjant Serik Tultebayev, safdorlar Mirvali Toxirov hamda Mansurbek Salohiddinov M. Ashrafiy 1-tor ko'chasi bo'ylab harakatla-

nisharkan, noma'lum shaxsning yer kovlayotganini payqab qolishadi. Mazkur holat tajribali xodimlarda shubha uyg'otdi. Fuqarodan holat

yuzasidan izoh so'ralganda, kutilmaganda qochishga urindi. Biroq xodimlarning tezkorligi, hushyorligi va muvofiqlashtirilgan harakat-

lari natijasida u qisqa vaqt ichida ushlendi.

Tekshiruv jarayonida ushlangan shaxsning Samarqand viloyatida yashovchi, 2007-yilda tug'ilgan fuqaro A.R. ekanligi aniqlandi. Sohaviy xizmat xodimlari va xolislar ishtirokida o'tkazilgan dastlabki ko'zdan kechirish davomida uning yonidan skotch bo'laklariga o'ralgan, har biri taxminan 0,5 gramdan qadoqlangan 31 dona gashish narkotik moddasi borligi ma'lum bo'ldi.

Safdor M. Salohiddinovning aytishicha, A.R. suhbat jarayonida qilmishidan pushaymon ekanini bildirib, ko'z yosh to'kib kechirim so'ragan va bunday xatoni boshqa takrorlamaslikka va'da bergan.

– Insonning xatosini anglab yetishi, albatta, yaxshi, – deydi M. Salohiddinov. – Ammo meni bir savol o'ylantiradi: nega bu pushaymonlik ushlangandan keyin uyg'onadi? Nega bu vijdon azobi giyohvandlik vositalari orqali qancha yoshlarning taqdiriga raxna solinayotganda, qancha ota-onaning orzu-umidlari parokanda bo'layotganda sezilmaydi? Qonun oldida javob berish arafasida aytilgan pushaymonlikdan ko'ra, jinoyatga qadam qo'ymaslik uchun yetarli bo'lgan vijdon va mas'uliyat ming karra qadri emasmi?!

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Qashqadaryo tajribasi

MUROJAATLAR BILAN ISHLASHDA

kompleks yondashuv

So'nggi yillarda ichki ishlar organlarida ham murojaatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Qashqadaryo viloyati IIBda to'plan-gan tajriba amaliyotda ijobiy natijalar bermoqda.



Viloyat IIBda murojaatlarni yo'nalishlar asosida qabul qilish yo'lga qo'yilgani samaradorlikni oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Bunda har bir yozma, elektron va og'zaki murojaatni ro'yxatga olish, mazmunan o'rganish, muammolarni joyiga chiqqan holda bartaraf etish hamda ijro intizomini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilyapti. Ayniqsa, boshqarma rahbariyatining tez-tez hududlarga chiqib, sayyor qabullar uyushtirayotgani, jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish xonasida kundalik qabullarning tizimli yo'lga qo'yilgani aholini qiynayotgan muammolarni joyida hal qilishda qo'l kelmoqda.

Ta'kidlash kerakki, keyingi vaqtda murojaatlar bilan ishlash borasida shahar-tuman

hokimliklari, turli mutasaddi tashkilotlar va mahalla instituti o'rtasidagi hamkorlik mexanizmi kuchaytirildi. Buning natijasida ijtimoiy himoya, bandlik, ichki ishlar organlariga xizmatga kirish, surishtiruv va tergov harakatlari bilan bog'liq murojaatlarni ijobiy hal etish ko'rsatkichi sezilarli darajada oshdi.

Murojaatlar bilan ishlash jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Elektron tizim orqali har bir murojaatning harakatini kuzatish, ijro muddatini nazorat va tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

– Joriy yilning dastlabki 5 oyi davomida viloyat IIBga 11 865 ta murojaat kelib tushdi, – deydi Tashkiliy boshqarma murojaatlar bilan ishlash guruhi

katta inspektori, podpolkovnik Shermuhammad Muslimov. – Shundan tergov-surishtiruv harakatlariga oid masalalar 14 foizni, ishga qabul qilish va qayta tiklash 61 foizni, xodimlarning xatti-harakatidan norozilik kayfiyati aks etgan murojaatlar 9 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida viloyat IIB boshlig'i tomonidan 20 ta shaxsiy qabul o'tkazilib, 362 nafar fuqaroning murojaati tinglandi. Ularning 215 tasi joyida hal etilgan bo'lsa, 97 nafar murojaatchiga asoslantirilgan huquqiy tushuntirishlar berildi. Qolgan murojaatlar nazoratga olinib, ijro choralari belgilandi.

Ma'lum bo'lishicha, takroriy shikoyatlarning aksariyati fuqarolarga rad etish qarorlarining asoslari to'liq va tushunarli tarz-

da yetkazilmagani bois kelib tushgan. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida har chorakda «murojaatlar xaritasi» shakllantirilmoqda. Shu bilan birga, eng ko'p murojaat kelayotgan sohalar bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilib, raqamli tahlil qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu esa muammolarning ildiz sabablarini kompleks yondashuv asosida bartaraf etish imkonini bermoqda.

Boshqarma va shahar-tuman IIBlarida har oyda «Huquqiy maslahat kunlari» tashkil etilayotgani, murojaatchilar bilan ochiq muloqot muhiti yaratilgani ham ko'zlangan samarani bermoqda. Ana shunday tizimli chora-tadbirlar ko'rilishi natijasida takroriy murojaatlar soni

17 foizga kamayishiga erishildi.

Murojaatlar bilan ishlashning samaradorligi faqatgina kelib tushgan arizalar soni bilan emas, balki ularning sifatli va qonuniy yechimi bilan baholanadi. Ayni paytda raqamli monitoring tizimlarini kengaytirish, mas'ul xodimlarning huquqiy ko'nikmalarini oshirish hamda jamoatchilik nazorati mexanizmlarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Kelgusida murojaatlar bilan ishlash sohasini to'liq raqamlashtirish, tizimli tahlil va jamoatchilik bilan muloqotni yanada kuchaytirish orqali ish sifatini yangi bosqichga ko'tarish maqsad qilingan.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Hududlarda

«Ziyokor» Boyovutning chekka mahallalaridan biri. Bu yerda qariyb uch yarim ming nafar aholi istiqomat qiladi. Mahallada tinchlik, jamoat tartibini saqlash, kriminogen vaziyatning barqarorligini ta'minlash vazifasi Boyovut tumani IIB HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Nodirbek Nuraliyevning zimmasida.

Mahalla Boyovut tumani markazidan yigirma kilometr chekkada – Janubiy Mirzacho'l kanalining o'rta oqimi o'ng qirg'og'ida joylashgan. Aholisining qo'li gul. Ko'pchiligi Yangiyer shahridagi turli korxona va tashkilotlarda faoliyat ko'rsatadi. Mahalla ushbu shaharga qo'shni bo'lgani uchun kriminogen vaziyat mahallaga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Nodirbek ushbu mahallada qariyb besh yildan beri faoliyat ko'rsatadi.

U ishga kelishi bilan mahalla faollari bilan yig'in o'tkazib jinoyatchilikni jilovlash rejasini tuzib oldi. Ko'pdan quyon qochib qutulmas, deganlaridek, ko'plashib mahalladagi o'nga yaqin nizoli oilalardagi vaziyatni sog'lomlashtirish choralari ko'rildi. Ularga ijtimoiy ko'mak ko'rsatildi. Ushbu mahallada yashovchi Abdulla Toshmatovning xo-



nadonida ham ba'zan murakkab vaziyat vujudga kelib turgan. Profilaktika inspektori ushbu xonadonga tez-tez boradigan bo'ldi. Natijada oilada vaziyat tobora sog'lomlashdi. Oila rahbarining ish bilan

ta'minlanishida ko'mak ko'rsatildi.

Katta leytenant probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ishlashga katta e'tibor qaratdi. Qirq sakkiz yoshli N. M. ham hayotda xatoga yo'l qo'yib keyin pu-

shaymon bo'lganlardan. Uning oyoqqa turishida profilaktika inspektorining o'rni katta. Mavsumiy ishchi bo'lib ishlab yurgan ushbu shaxs kasbga yo'naltirildi. U elektr payvandlash, turli temir to'siqlar, aravalar, o'rindiqlar buyumlarni yasashni yaxshigina o'zlashtirdi. Buning ortidan oilasiga baraka kirdi.

– Profilaktika inspektorimiz o'ta mas'uliyatli, – deydi mahalla raisi Jamila Allayorova. Ko'chalar, ijtimoiy obyektlar, savdo do'konlariga yigirmaga yaqin videokuzatuv kameralari o'rnatildi. Bu esa salbiy holatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Mahalladagi ikkita umumta'lim maktabida qariyb yetti yuz nafar o'quvchi tahsil oladi. O'quvchilar bilan davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etib turadi.

«Ziyokor» mahallasi mana uch yildirki yashil hududda. Katta leytenant buni mahalla rahbarlari, aholining o'zaro ahilligida, huquqbuzarlikka qarshi kurashda bir yoqadan bosh chiqarishida deb hisoblaydi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz,

Sirdaryo viloyati.



AHOLI XATLOVI ochib bergan manzara

Mamlakatimizda 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralgacha aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlari o'tkazildi. Bu mustaqil O'zbekiston tarixidagi ilk to'liq aholi xatlovi bo'lib, yurtimizning demografik portretini yangidan shakllantirish imkonini berdi.

2026-yilning birinchi yarmida e'lon qilingan, bir qarashda oddiy ko'ringan statistik ma'lumot mamlakat demografik xaritasida qanday o'zgarishlar kechayotganini namoyon qildi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil 1-aprel holatida O'zbekistonning doimiy aholisi 38 million 382 ming nafarga yetgan.

Xususan, aholi eng ko'p yashaydigan shahar va tumanlar reytingida ro'yxatning birinchi pog'onasini Namangan shahri egaladi. Bugun bu yerda 731,3 ming nafar aholi istiqomat qilmoqda. Keyingi

o'rinlarda Samarqand shahri (607,6 ming nafar) va Urgut tumani (588,6 ming nafar) qayd etilgan.

Urgut, Denov, Pastdarg'om va Asaka kabi tumanlar aholi ko'pligi bo'yicha ko'plab viloyat markazlarini ortda qoldirgan. Bu esa O'zbekistonda demografik o'sish haqidagi an'anaviy tasavvurlarni o'zgartirmoqda. Chunki odatda aholi shaharlarga ko'chadi, degan qarash ustun, ammo raqamlar boshqa manzarani ko'rsatmoqda. Ayrim tumanlar aholi soni jihatidan yirik shaharlarga yaqinlashib qolgan. Masalan, Urgut tumani aholisi

bugungi kunda ayrim mamlakatlarning yirik shaharlari aholisi bilan taqqoslanadi. Denov tumanida 442,7 ming nafar, Pastdarg'om tumanida 401,5 ming nafar aholi yashaydi. Bu ko'rsatkichlar tuman tushunchasining o'zi ham o'zgarib borayotganini ko'rsatadi.

Mazkur holat tasodif emas. Aholisi eng ko'p yashaydigan hududlarning aksariyati mamlakatning an'anaviy demografik markazlari sanalgan Farg'ona vodiysi, Samarqand viloyati va Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi. Bu hududlarda tug'ilish darajasi yuqori, mehnat resurslari katta va aholi zichligi mamlakat o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqori.

Ushbu reyting faqat aholi soni haqida emas. U mamlakatning kelajakdagi ehtiyojlari to'g'risida ham ma'lumot beradi. Boisi aholi qayerda

ko'paysa, infratuzilmani rivojlantirishga talab oshadi, kelajakda maktablar, bog'chalar, poliklinikalar, ichimlik suvi tarmoqlari va yangi ish o'rinlariga bo'lgan talab ham aynan o'sha yerda ortib boradi. Shu ma'noda aholisi eng ko'p hududlar ro'yxati kelajakda davlatning eng katta infratuzilma yuklamasi qayerga tushishini ham ko'rsatadi.

Aholi xatlovi va statistika ma'lumotlari yana bir muhim haqiqatni ochib bermokda. O'zbekistonda aholi tez sur'atlarda o'sib borayotgan yirik demografik markazlar bilan bir qatorda, aholi soni nisbatan past bo'lib qolayotgan hududlar ham bor. Mamlakatning demografik rivojlanishi bir tekis kechmayotgani esa keyingi yillarda hududiy taraqqiyot siyosati oldiga yangi vazifalarni qo'yishi mumkin.



Musulmon ZIYO,
jurnalist.

Demak, asosiy savol endi boshqacha yangramoqda: nega ayrim tumanlar yuz minglab aholini o'ziga jalb qilib, mamlakatning yangi demografik markazlariga aylanmoqda, boshqa hududlar esa bu sur'atdan ortda qolmoqda?

Bu holat bir qarashda muammo bo'lib ko'rinmasligi mumkin, ammo demograflar va iqtisodchilar uchun mazkur tendensiya muhim ahamiyatga ega. Chunki aholi jamlanayotgan hududlar kelajakda yangi chaqiriqlarga duch keladi. Masalan, urbanizatsiya jarayonlari kuchaygan sari transport yuklamasi ortishi, yer resurslariga bosim kuchayishi va ijtimoiy xizmatlarga ehtiyoj keskin oshishi mumkin. Bugungi kundayoq yirik shaharlar va aholi zich joylashgan tumanlarda bu jarayonning dastlabki belgilari kuzatilmoqda.

Ayniqsa, yoshlar ulushi-ning yuqoriligi mazkur jarayonni yanada tezlashtirmoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston aholisining katta qismi mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa aholi ko'payib borayotgan hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda.

Aholi xatlovining ahamiyati shundaki, u kelajakda qayerda maktab qurish, qaysi hududda shifoxona quvvatini oshirish, qayerda yangi ish o'rinlari yaratish zarurligi haqida ham aniq tasavvur beradi. Boshqacha aytganda, demografik ma'lumotlar mamlakatning kelgusi o'n yillik rivojlanish strategiyasini belgilashda muhim manba vazifasini o'taydi.



26-iyun — Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurashish kuni

TRANSMILLIY NARKOTAHDIDLARGA QARSHI

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global-lashuv davrida transmilliy jinoyatchilik, xususan, giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy aylanmasi butun insoniyat uchun eng jiddiy tahdidlardan biriga aylandi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi jinoyatchilarga qing'ir ishlarini internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirish imkonini bermoqda. Bunday murakkab sharoitda Yangi O'zbekiston o'z fuqarolarini, ayniqsa, yosh avlodni bu ofatdan himoya qilish uchun keskin va murosasiz kurash e'lon qildi.



MUROSASIZ KURASH

YANGI QONUN – MILLAT GENOFONDINI ASRASHNING HUQUQIY QALQONI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi uchun javobgarlikni keskin kuchaytiruvchi yangi qonun mam-lakatimiz huquqiy tizimida inqilobiy o'zgarish yaratdi. Mazkur hujjat bilan Jinoyat kodeksiga «Aholi salomatligi va genofondiga qarshi jinoyatlar» degan yangi bobning kiritilishi davlatning bu masalaga naqadar jiddiy qarayotganini tasdiqlaydi.

Qonunda quyidagi asosiy kuchaytirilgan jazo choralari nazarda tutilgan:

► internet va telekommunikatsiya tarmoqlari orqali narkotiklarni tarqatish eng og'ir jinoyatlar sirasiga kiritildi;

► ta'lim muassasalari (maktablar, oliygohlar) va ularning atrofida narkotik vositalarni o'tkazganlik uchun

javobgarlik misli ko'rilgan darajada og'irlashtirildi;

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, an'anaviy narkotiklar o'rnini arzon va tez tayyorlanadigan, inson ruhiyati va sog'lig'iga bir necha barobar tezroq va og'irroq zarar yetkazuvchi sintetik moddalar egallamoqda. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, xususan, IIV shaxsiy tarkibidan yanada hushyorlikni, zamonaviy bilim va tezkorlikni talab etadi.

► voyaga yetmaganlarni bu jirkanch illatga jalb qilganlar va yashirin narkolaboratoriyalarni tashkil etganlar uchun jazo choralari keskin (20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish) oshirildi;

► eng muhimi – ushbu toifadagi og'ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tartibi qo'llanilmaydi. Bu «jazoning muqarrarligi» prinsipining to'liq ish-lashini ta'minlaydi.

JAMIYATNING UYG'ONISHI VA YOSHLAR HIMOYASI

Yangi qonun qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva jamoatchilikka, barcha ota-onalarga va mutasaddilarga murojaat bilan chiqdi. Ushbu murojaatnoma har bir ichki ishlar organi xodimi uchun ham o'ziga xos da'vat sifatida yangradi.

Ta'kidlanganidek, bu hujjat faqat jinoyatchilarni jazolash uchun emas, balki xalqimiz salomatligi va genofondini himoya qilish, yoshlarimizni fojiali yo'ldan asrab qolishga qaratilgan qonundir. Bolalarimiz kelajagi – bu millatimiz kelajagidir!

Murojaatda yashirin narkolaboratoriyalar tashkil etish, narkotiklarni internet orqali transmilliy usulda tarqatish kabi oldin qonunchilikda bo'lmagan yangi tahdidlarga qarshi yangi javobgarliklar belgilangani alohida qayd etildi. Voyaga yetmaganlarni narkotiklarga jalb qilganlarga 10 yilgacha, bu jinoyatlarni uyushgan guruh tarkibida sodir etganlarga esa 20 yilgacha qamoq jazosi belgilanishi, maktablar, talabalar yotoqxonalari va bolalar oromgohlarida

narkosavdogarlarga qarshi murosasiz kurash e'lon qilingani ochiqlandi.

Shuningdek, narkojinoyatlarga qarshi kurashish uchun Respublika maxsus ishchi guruhi faol ishlayotgani, lekin bu kurashda yolg'iz davlat organlarining o'zi yetarli emasligi, har bir ota-ona, har bir fuqaro hushyor bo'lishi shartligi uqtirildi. Bu esa biz, huquq-tartibot idoralari xodimlarining jamoatchilik bilan hamkorligini yangi bosqichga olib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

KELAJAK POYDEVORINI YEMIRUVCHI VIRUS

Yangi qonunning hayotga tatbiq etilishi kelajakda Yangi O'zbekiston aholisi uchun quyidagi ulkan manfaatlarini keltiradi:

birinchidan, sog'lom genofond: yoshlarimiz sintetik zaharlarning qurboniga aylanmaydi, kelajak avlod sog'lom va baquvvat tug'iladi;

ikkinchidan, xavfsiz raqamli muhit: internet va ijtimoiy tarmoqlardagi «o'lim guruhlar» va narkokanal-lar faoliyati falajlanadi;

uchinchidan, ta'lim maskanlarining daxlsizligi: maktab va oliygohlar hududi narkosavdogarlardan to'liq tozalanib, ota-onalarning o'z farzandlari xavfsizligidan ko'ngli to'q bo'ladi.

to'rtinchidan, jamiyat barqarorligi: og'ir jinoyatlarni sodir etganlar muddatidan oldin ozodlikka chiqmasligi hisobiga retsiv (takroriy) jinoyatlar soni keskin kamayadi, jamiyatda adolat va qonun ustuvorligiga bo'lgan ishonch ortadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan yaratib berilgan bu mustahkam huquqiy baza endilikda bizning kundalik jangovar qurolimizga aylanishi kerak. Ichki ishlar organlari xodimlari, ayniqsa, tezkor-qidiruv xizmati, profilaktika inspektorlari va tergov bo'linmalaridan ushbu qonunni amaliyotda qat'iy va og'ishmay qo'llash talab etiladi.

Dilmurod MAHMUDOV,
Kriminologiya tadqiqot
instituti yetakchi ilmiy xodimi,
yuridik fanlar doktori,
dotsent.

26-IYUN

**XALQARO
GIYOHVANDLIKKA
QARSHI KURASHISH KUNI!**

Giyohvandlik – kelajakni yemiradi,
bizning vazifamiz – jamiyatni himoya qilish!

BIZNING MAQSADIMIZ:

- BARCHAMIZ BIR MAQSAD UCHUN
- BIZ KELAJAK UCHUN JAVOGBARMIZ
- SOG'LOM HAYOT – ENG YAXSHI TANLOV
- BILIM VA OGOHLIK – ENG KUCHLI QUROL

BIRGALIKDA KELAJAK UCHUN!

SOG'LOM XALQ – SOG'LOM KELAJAK!

Kelajak
bizning bugungi tanlovlarimizga bog'liq!



Ma'naviyat va ma'rifat darsi



YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI – YURT TAYANCHI

(30-iyun – Yoshlar kuni)

HAL QILUVCHI KUCH

Har qanday yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, Yangi O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yosh avlodning hayotiy manfaatlarini ta'minlash, ularning ezgu orzu-intilishlari, qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarishga qaratilgan islohotlar izchil va samarali amalga oshirilmoqda. Ularning ilg'or bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, yetuk mutaxassis, chinakam vatanparvar insonlar bo'lib kamol topishi uchun hamma sharoitlar yaratib berilmoqda. Ko'plab yoshlar parlamentda, hukumat a'zolari safida, davlat boshqaruvi organlarining mas'ul lavozimlarida, zamonaviy korxonalarda, kichik biznes va tadbirkorlik, ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at va sport sohalarda – hayotimizning barcha jabhalarida jo'shqin faoliyat olib bormoqda.

ENG MUHIM INVESTITSIYA

Har bir hududda «Yoshlar biznes inkubatori» tashkil etilishi yoshlarning g'oyalari amalga oshirish uchun institutsional asos yaratadi. Bu markazlar orqali biznes-reja tuzish, huquqiy maslahat olish, moliyaviy resurslarga chiqish imkoniyati kengayadi. Yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar – Yangi O'zbekistonning kelajagiga kiritilayotgan eng muhim investitsiyadir.

Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida ibratli ishlar qilinmoqda. Xususan, joriy yilda 384,4 ming nafar yigit-qizni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan «Yoshlar bandligi dasturi» qabul qilinib, bugungi kunda 414,4 ming nafarining bandligi ta'minlangan. Bu boradagi chora-tadbirlar natijasida 2 474 ta mahalla «yoshlar ishsizligidan xoli hudud»ga aylangan.

Alohida ishlash talab etiladigan 51,5 ming yoshlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning 4 155 nafar xodimlariga nomma-nom birlashtirilgan, 48,7 ming yoshlarning ijtimoiy va maishiy muammolari hal etilgan.

PARLAMENT NAZORATI

2023–2025-yillar davomida yoshlarga oid qonunlarning hududlardagi ijro holati, Davlat dasturi, Prezident farmoni va qarorlarining ijrosini o'rganish maqsadida 15 taga yaqin nazorat-tahlil faoliyati amalga oshirilib, ta'sirchan parlament nazorati o'rnatildi. Mahalliy Kengashlar bilan 4 ta qo'shma qaror qabul qilinib, ijroga qaratildi.

Senat aralashuvi bilan Farg'ona viloyatida «Yoshlar daftari»ga kiritilgan va sertifikat olgan 85 nafar yigit-qizga 1 mlrd 844,8 mln miqdorida imtiyozli kredit ajratilishiga erishilib, muammolari ijobiy hal etildi. Yetim bolalar va otana qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning uy-joy bilan ta'minlanishi bo'yicha nazorat olib borilib, mingga yaqin bola uy-joy bilan ta'minlandi. Shuningdek, uy-joy bilan ta'minlangan bolalarga o'z vaqtida zaruriy jihozlar taqdim etilishi nazorat qilindi.



Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish borasida hududlarda olib borilgan ishlar holati joyiga chiqib o'rganildi va aniqlangan kamchiliklarni joyida hal qilish bo'yicha choralar ko'rildi.

Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyatini tashkil etish hamda ularning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash yuzasidan olib borilayotgan ishlar Toshkent viloyati va poytaxtda o'rganilib, Senat Kengashida muhokama etildi. Toshkent shahrida joylashgan Yoshlar sanoat zonalarini faoliyatini yanada yaxshilash uchun 5 mlrd so'm mablag' ajratilishiga erishildi.

USTUVOR VAZIFALAR

Yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda ularni turli yot ta'sirlar, narkojinoyatlaridan himoya qilish eng ustuvor vazifalardan biridir. Tahlillar shuni ko'rsatmoqda ki, **o'tgan yilda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik 15 foizga kamayib, 4 034 ta hudud «yoshlar jinoyatidan xoli mahalla»ga aylangan.**

Bugungi kunda O'zbekistonda 750 dan ortiq faol startap mavjud bo'lib, ularning 75 dan ziyodi xorijiy va mahalliy venchur jamg'armalaridan investitsiya jalb qilishga muvaffaq bo'lgan. 2025-yilning o'zida respublikada venchur fondlarning soni 15 tani tashkil etib, umumiy kapital hajmi 180 million dollarga yetgan.

Respublikamizning barcha viloyatlarida startap studiyalar tashkil qilinib, hozirda 27 ta mentor 305 ta startapga ko'mak bermoqda. Mazkur startap loyihalar 2,7 mln dollar miqdorida investitsiya

jalb qilgan. Yoshlarning startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida eng ilg'or texnologiyalarni olib kelib, 100 ta mahalliy startapni xalqaro miqyosda jozibador biznesga aylantirish tadbirlarini moliyalashtirish uchun 2026 davlat byudjetidan 50 mlrd so'm ajratilishi belgilangan.

UYG'ONISH DAVRI

Bugun Vatanimiz kelajagini belgilab beradigan, yangi Uyg'onish davrining asosini tashkil etadigan hal qiluvchi soha – ta'lim-tarbiya tizimi jadal rivojlanmoqda. Hayotda sinovdan o'tgan milliy va xorijiy tajribalar asosida yangi-yangi

“ Hech qachon unutmang, sizlar inson har tomonlama erkin, ozod va farovon yashaydigan Yangi O'zbekiston hamda Uchinchi Renessans bunyodkorlarisiz.

Shavkat MIRZIYOEV



Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senatining Yoshlar,
xotin-qizlar, madaniyat va sport
masalalari qo'mitasi a'zosi.

bilim, san'at va sport maskanlari barpo etilmoqda.

Prezident maktablari, ixtisoslashgan hamda ijod maktablarida yuzlab iste'dodli o'g'il-qizlar zamonaviy ta'lim-tarbiya olmoqda, mahorat sirlarini egallamoqda. Iqtidorli talabalar uchun Prezident granti ta'sis etilishi, respublikamizdagi xorijiy oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun ham Prezident va davlat stipendiyalarining joriy qilinishi, ikki va undan ortiq farzandini shartnoma asosida o'qitayotgan oilalarga imtiyozli ta'lim krediti berilishi, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab loyihalar, jumladan, ularni ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik va ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha ilgari surilgan g'oyalar ulug'vor maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Yurtimiz yoshlari yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, turli sohalarda dastlabki umidbaxsh natijalarni qo'lga kiritayotgani albatta barchamizni xursand qiladi. Xususan, iqtidorli o'quvchilarimiz o'tgan yili xalqaro fan olimpiadalarida, yosh sportchilarimiz esa xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin ki, mamlakatimiz oldida turgan yuksak maqsadlar yo'lida hal qiluvchi kuch sifatida qaralayotgan yoshlarimiz o'z zimmasidagi ulkan mas'uliyat va javobgarlikni his qilib, Vatan manfaatlarini yo'lida yanada birlashib, tom ma'nodagi tarixiy vazifani sharafla ado etishlari lozim. Zero, uchinchi Renessans poydevorining mustahkam asosi bo'lib xizmat qiluvchi bugungi buyuk g'oyalarda ana shunday ulug' maqsadlar mujassamdir.



Qoraqalpoq tilida



Rus tilida



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Davlat mustaqilligining 35 yilligi oldidan

MEN ISTIQLOL TENGDOSHIMAN



Istiqlol xalqimiz tarixida yangi sahifani ochgan bo'lsa, 1991-yil dunyoga kelgan yurtdoshlarimiz uchun hur Vatanda yashash baxtining qutlug' muqaddimasi edi. Ularning qadamlari istiqlool odimlari bilan birga tashlandi, ular mustaqillik bilan egizak voyaga yetdi. Bugun ushbu avlod vakillari kuch-quvvatga to'lgan, turli sohalarda Vatan ravnaqi yo'lida sidqidildan xizmat qilmoqda. Mana shunday baxtli va faol avlod qatorida borligim – istiqlool tengdoshi ekanligim menga cheksiz faxr-iftixor bag'ishlaydi.

Chimboy tumanidagi 38-sonli o'rta maktabda tahsil olgan kezarimdayoq qalbimda ichki ishlar organi xodimi bo'lish, elimning osoyishtaligini himoya qilish orzusi uyg'ongan edi. Garchi otam Kamiljan Urazimbetov huquqni muhofaza qilish tizimidan yiroq sohada ishlagan bo'lsa-da, mening kasb tanlash borasidagi intilishlarimni qo'llab-quvvatladi, zarur sharoitlarni yaratib berishga harakat qildi. U kishining «Har doim chuqur bilim olish kerak» degan o'giti menga yo'lchi yulduz bo'ldi. Shu bois darslardan so'ng ustozim Olga Zalisayevadan qo'shim-

cha saboq olib, bilimlarimni mustahkamlab bordim.

Kasb egallash yo'lidagi ilk jiddiy qadamim 2006-yilga to'g'ri keldi. Farg'ona viloyatidagi general-mayor G'ulomjon Zokirov nomidagi Respublika harbiy-huquq litseyiga o'qishga kirib, hayotimda birinchi marotaba harbiy libosni kiygan vaqtdagi hayajon va quvonchim xotiramda bir umrga muhrlanib qoldi.

2008-yili litseyini bitirish arafasida Rossiya Federatsiyasi IIV Sankt-Peterburg universitetiga tanlov bo'layotganidan xabar topdim va bilimimni sinab ko'rishga

qaror qildim. Bu qaror hayotimdagi eng to'g'ri qadamlardan biri bo'ldi. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, hatto rus tilidagi diktantni «5+» bahosiga topshirgan sanoqli nomzodlar qatoridan joy oldim.

Oliy harbiy o'quv yurtidagi o'qish davomida otamning va ustozlarimning o'git-nasihatlariga amal qilgan holda, yaxshi baholarga o'qishga harakat qildim. Albatta, besh yillik tahsil davrida ona Vatan sog'inchi qanday bo'lishini faqat buni boshidan o'tkazgan insongina chin dildan his qila oladi, bu tuyg'uni so'z bilan ta'riflash qiyin.

Oliy ta'limni 2013-yilda leytenant unvoni bilan muvaffaqiyatli yakunlab, yurtimizga qaytib keldim va ilk xizmat

faoliyatimni Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV huzuridagi Qo'riqlash boshqarmasi Kadrlar bo'limi inspektori lavozimida boshladim. Keyinchalik vazirlikning Kadrlar boshqarmasi inspektori, katta inspektor-psixologi vazifalarida xizmat qildim. O'tgan davr mobaynida yurt xavfsizligi va el osoyishtaligi yo'lida sidqidildan qilgan xizmatlarim e'tirof etilib, menga mudatidan oldin «mayor» unvoni berildi, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV tomonidan «Tashakkurnoma» bilan taqdirlandim. Albatta, bu men uchun nafaqat yutuq, balki yanada katta ishonch va mas'uliyat ramzi bo'ldi.

Ayni paytda Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Tezkor-qidiruv xizmatida kat-

ta tezkor vakil lavozimida xizmat qilib kelyapman.

Ta'kidlash joizki, erkinlik, o'zlikni va milliylikni anglash tuyg'usini in'om etgan mustaqillik orqali biz uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Men va men qatori ko'plab tengdoshlarimning eng nufuzli xorij oliy o'quv dar-gohlarida ta'lim olish baxtiga muayassar bo'lganimiz ham istiqlool mevasidir. Bugun mamlakatimiz yoshlari turli sohalarda yangidan-yangi marralarni zabt etib, Vatanimiz nomini dunyoga tanitayotgani ham ayni haqiqat. Bu yutuqlarning negizida, shubhasiz, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik mujassam.

Men, yurtimiz tinchligini asrashda xizmat qilayotgan istiqlool tengdoshlaridan biri ekanligimdan faxrlanaman va kelgusida uni yanada mustahkamlashga bor kuch-g'ayratimni safarbar etaman.

Atabek URAZIMBETOV,
podpolkovnik.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Sohaviy xizmatlarda

«GRAF» JINOYATNI FOSH ETDI

Surxondaryo viloyati IIB JXX Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi Kinologiya bo'linmasi instruktor-kinologi, safdor Zuhridin Davronov YPX maskanlaridagi navbatchiliklar paytida o'zining ishonchli hamkori – «Graf» laqabli xizmat iti bilan hudud xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlashga munosib hissa qo'shmoqda.



sezgirlikni namoyish etib haydovchiga qarab ishora berdi. Tekshiruv paytida uning yonidan ma'lum miqdordagi opiy giyohvandlik moddasi topildi. Holat yuzasidan tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib, qonuniy chora ko'rildi.

Safdor Zuhridin Davronov 2012-yildan buyon ichki ishlar organlarida faoliyat yuritib kelaydi. U o'tgan davr mobaynida bir qator jinoyatlarning «issiq izida» fosh qilinishida faol ishtirok etgan.

Tajribali kinolog xizmatdan ajralmagan holda o'z ustida ishlashni ham kanda qilmayapti. Ayni paytda u Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida sirtqi ta'lim shaklida tahsil olmoqda.

Zuhridin Davronovning kasbiga sadoqati, yuksak mas'uliyati va vazifasiga vijdonan yondashuvi hamkasblari orasida alohida e'tirof etiladi. Uning ishga bo'lgan bunday munosabati tizimga yangi kirib kelayotgan yosh xodimlar uchun ibrat.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

SODDALASHTIRILGAN TARTIB
qulaylikka xizmat qiladi

Bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda migratsiya jarayonlarini tartibga solish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, amaldagi qonunchilikka muvofiq, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasiga turizm, ta'lim, mehnat faoliyati, davolanish va boshqa maqsadlarda kelishi mumkin. Ular mamlakat hududiga kirganidan so'ng uch ish kuni ichida vaqtincha ro'yxatdan o'tishlari lozim.

Jizzax viloyati misolida oladigan bo'lsak, joriy yil boshidan buyon 11671 nafar xorijiy fuqaro va fuqaroligi bo'lmagan shaxs vaqtinchalik ro'yxatga olindi. Shundan 3940 nafari ichki ishlar organlari orqali, 7731 nafari esa joylashtirish vositalari tomonidan ro'yxatga olingan. Ularning 6230 nafari 30 kungacha vizasiz tartibda kelgan bo'lsa, 5441 nafari boshqa asoslarda mamlakatga kirib kelgan. Chet el fuqarolariga, vaqtincha ro'yxatdan

o'tgan manzilda yashashlari shartligi, qonun talablarini buzgan shaxslar esa belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi tushuntirilmoqda.

Mamlakatimizda chet el fuqarolar uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar, vizaviy va ro'yxatdan o'tish tartiblarining soddalashtirilishi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, turizm salohiyatini oshirish hamda investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Buni birgina Jizzax shahrida xorijliklar yashaydigan mavzelar, dunyo taomlari oshxonalar paydo bo'layotganidan ham ko'rish mumkin.

Rashid SUBONQULOV,
Jizzax viloyati IIB huzuridagi
Migratsiya va
personallashtirish boshqarmasi
bosh inspektori,
podpolkovnik.

Bizning suhbat

«ZAMON JURNALISTNI O'ZGARISHGA MAJBUR QILMOQDA»

Axborot maydonida kechayotgan shiddatli o'zgarishlar jurnalistdan nafaqat tezkorlik, balki yuksak mas'uliyat, tahliliy fikrlash va zamonaviy texnologiyalarni puxta egallashni ham talab qilmoqda. Shu bilan birga, jurnalistlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning kasbiy salohiyatini yuksaltirish ham dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi Shuhrat Oripov bilan bo'lgan suhbatimizda ayni shu masalalar xususida so'z yuritdik.

– **Shuhrat aka, aytingchi, jurnalistika sohasi va uyushma faoliyatida qaysi masalalarni eng dolzarb deb hisoblaysiz?**

– Uyushmadagi faoliyatimning dastlabki oylarida hududlardagi jurnalistlar bilan uchrashib, sohadagi muammo va takliflarni o'rgandik. Mart oyidan buyon Uyushmaning hududiy bo'linmalari tomonidan 50 dan ortiq tadbir o'tkazildi, ularda mingdan ziyod jurnalist ishtirok etdi. Bu muloqotlar davomida bir qator muhim xulosalarga keldik. Eng avvalo, jurnalistlar o'rtasida kasbiy hamjihatlikni mustahkamlash va sohadagi birlikni kuchaytirish zarur. Shuningdek, ochiqlik va so'z erkinligi sharoitida jurnalistlarning faolligini oshirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda mediasavodxonlikni oshirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgiladik. Bugun jurnalist nafaqat axborot tayyorlaydigan mutaxassis, balki raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy media muhitini yaxshi biladigan professional bo'lishi kerak. Shu bois barcha hududlarda media haftaliklar tashkil etilib, jurnalistlar, bloggerlar, SMM mutaxassislari va matbuot kotiblari uchun o'quv mashg'ulotlari o'tkazilmoqda.

Yana bir muhim yo'nalish — sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish. Axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt jadal rivojlanayotgan hozirgi sharoitda amaldagi ayrim huquqiy normalarni yangilash zarurati paydo bo'lmoqda. Xususan, mualliflik huquqini himoya qilish, jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash va uyushmaning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan takliflar ustida ish olib borilmoqda.

– **Bugungi kunda zamonaviy jurnalistning bilim, ko'nikma va mas'uliyatiga qanday talablar qo'yilmoqda?**

– Axborot texnologiyalari jarayonlari shunday bir bosqichga yetdiki, endilikda bilim, tajribali va mahoratli bo'lishi muqammal jurnalist bo'lish uchun kifoya qilmaydi. Hududlarda o'tkazayotgan uchrashuvlarimizda 30–40 yillik tajribaga ega jurnalistlar ham bugungi o'zgarishlarga moslashishga majbur bo'layotganini ko'ryapmiz. Chunki axborot tarqatish vositalari va texnologiyalari jadal yangilanmoqda, sun'iy intellekt bilan bog'liq yangi imkoniyatlar va chaqiriqlar paydo bo'lmoqda. Bu jarayonlar jurnalistni universal mutaxassis bo'lishga undamoqda. Shu nuqtayi nazardan, bugungi jurnalist axborot texnologiyalaridan shunchaki foydalanishni emas, balki ulardan to'g'ri va samarali foydalanishni bilishi kerak.

– **Hozirgi kunda axborot makoni kengayib, xabar tarqatish tezligi tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda feyk xabarlar juda tez tarqaladi...**

– To'g'ri aytasiz, feyk xabarlar va tekshirilmagan ma'lumotlarning tez tarqalishi axborot makonidagi eng jiddiy muammolardan biriga aylandi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar sharoitida har qanday axborot qisqa vaqt ichida keng auditoriyaga yetib bormoqda. Shu bois jurnalist zimmasidagi mas'uliyat yanada ortib bormoqda. Ayrim hollarda tajribaning yetishmasligi yoki tezroq auditoriya e'tiborini qozonish istagi natijasida xabarlar yetarlicha tekshirilmasdan e'lon qilinishi kuzatiladi. Bu esa voqea va jarayonlarning noto'g'ri talqin qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun jurnalist har bir ma'lumotni bir

nеча manba orqali tekshirishi, xolislik va haqqoniylik tamoyillariga qat'iy amal qilishi zarur.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joiz, feyk xabarlarining oldini olishda davlat idoralari va axborot xizmatlarining tezkorligi ham muhim ahamiyatga ega. Agar rasmiy munosabat o'z vaqtida bildirilmasa, noto'g'ri ma'lumotlar jamoatchilik orasida tez tarqalib ketadi. Shu bois axborot xizmatlari jurnalistlar murojaatlariga operativ javob berishi va dolzarb masalalar yuzasidan tezkor axborot taqdim etishi lozim. Biz ham bu yo'nalishda davlat organlari bilan hamkorlikda faktcheking va ishonchli axborot manbalarini birlashtiruvchi platformalarni yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqmoqdamiz.

– **Siz axborot xizmatlarining faolligi haqida fikr bildirdingiz. Shu o'rinda IIV Axborot xizmati va umuman ichki ishlar organlaridagi axborot siyosatiga qanday baho berasiz?**

– Ichki ishlar organlari juda katta tizim bo'lgani uchun ayrim holatlarda barcha axborotlarga bir vaqtning o'zida tezkor munosabat bildirish oson emas. Shu bois hududiy bo'g'inlardagi matbuot kotiblarining ham faolligi muhim. Faqat markaziy axborot xizmati emas, balki tizimning barcha bo'g'inlari jamoatchilik bilan doimiy muloqotda bo'lishi kerak. Aks holda, noto'g'ri axborotlar va feyk xabarlar tarqalishi uchun bo'shliq paydo bo'ladi.

Soha xodimlarining fidoyiligini ko'rsatadigan, ularning mehnatini ochib beradigan mediamahsulotlar juda ham muhim. Shaxsan menda osoyishtalik posbonlariga bo'lgan hurmat bolalikdan shakllangan. Otam ham shu tizimda uzoq yillar xizmat qilgani bois uning ichki hayotini yaqindan ko'rganman. Ichki ishlar organlarining



faoliyatini to'g'ri va xolis yoritish jamiyatdagi ishonchni oshiradi, deb hisoblayman.

– **Jurnalistlar uyushmasiga a'zo bo'lish uchun qanday talablar mavjud?**

– O'zbekiston jurnalistlari uyushmasiga a'zo bo'lish tartiblari soddalashtirilmoqda. Birinchi navbatda a'zolik yoshi 22 yoshga tushirildi. Hozir 2157 nafar uyushma a'zosining katta qismi 60 yoshdan yuqori. Shuning uchun tizimga yosh kadrlarni jalb qilish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Uyushma qoshida nomzodlarni va a'zolar faoliyatini o'rganuvchi komissiya tashkil etildi. Uning vazifasi — yangi nomzodlarni baholash, tavsiya berish hamda amaldagi a'zolar faoliyatini tahlil qilishdan iborat. Faol bo'lmagan yoki uyushma nufuziga zid harakat qilgan a'zolar bo'yicha ham xulosa berilishi mumkin.

A'zolik ixtiyoriy bo'lib, nomzod ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi jurnalistlar, fotojurnalistlar, tahririyat xodimlari, OAV va ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchilar ham a'zo bo'lishi mumkin. Xorijlik fuqarolar esa faxriy a'zo sifatida qabul qilinadi.

A'zolikka qabul qilishda ariza, tarjimai hol, e'lon qilingan materiallar ro'yxati va tavsiyanomalar talab etiladi. 20 yillik ish stajiga ega nomzodlar uchun ba'zi tavsiyanomalar talab qilinmasligi kabi yengilliklar ham joriy etilgan. Hozirgi kunda yil yakuniga qadar 500 nafar yangi a'zoni qabul qilish rejalashtirilgan. Bu uyushma faoliyatiga yangi kuch va yangi g'oyalar olib kirishi kutilmoqda.

– **Yosh jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash va ularning kasbiy mahoratini oshirish borasidagi rejalaringiz bilan ham o'rtoqlashsangiz.**

– Kasbga endi kirib kelayotgan yosh jurnalistlarga birinchi navbatda izlanish va mas'uliyatli yondashuvni tavsiya qilgan bo'lardim. Jurnalistika — doimiy

o'rganishni talab qiladigan kasb. Shuning uchun yoshlar har doim o'zi ustida ishlashi, bilim va ko'nikmalarini oshirib borishi kerak.

Bugun Uyushma qoshida Yosh jurnalistlar kengashi faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqyapmiz. Shu bilan birga, yoshlarning ulushini oshirish, ularni turli loyihalar va tanlovlarga kengroq jalb qilishni maqsad qilganmiz. Chunki amaldagi tanlovlarda yoshlar ba'zan katta tajribali ustozlar bilan raqobat qila olmayotgani haqida e'tirozlar bildirilmoqda. Shuning uchun ayrim tanlovlar faqat yoshlar va ayollar uchun alohida formatda tashkil etilmoqda.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash faqat tanlovlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ular uchun muntazam seminar va treninglar tashkil etish, xorijda malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, istiqbolli kadrlarni tahririyatlarda mas'ul lavozimlarga tayyorlash ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki hududlardagi ko'plab tahririyat rahbarlari katta tajribaga ega bo'lsa-da, ular o'rnini bosadigan yangi avlodni tayyorlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Shu maqsadda biz mahorat maktablarini yo'lga qo'yishni rejalashtirganmiz. Birgina mahorat maktabi orqali o'nlab yosh jurnalistlarni tayyorlash mumkin. Bu esa kelajak jurnalistikasi uchun mustahkam asos yaratadi.

– **27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan bayram tilaklaringiz.**

– Uyushma nomidan barcha hamkasblarimizni kasb bayrami bilan chin qalbdan tabriklayman. Matbuot, televideniye, radio va nashriyotlarda fidoyilik bilan mehnat qilayotgan barcha ijodkorlarga sihat-salomatlik, ijodiy yutuqlar tilayman.

Adolat FAYZIYEVA suhbatlashdi.



Fidoyi ayol timsoli

OQ XALAT
ORTIDAGI MATONAT

Xorazm viloyati IIB Davolash-profilaktika muassasalari tibbiyot bo'limi gospitali boshlig'i-shifokori, podpolkovnik Nargiza Qurbonova faoliyatining asosiy qismi shu sohaga bag'ishlandi. U faoliyatini viloyat IIB Tibbiyot bo'limi viloyatlararo kasalxonasida fizioterapiya xonasi boshlig'i, fizioterapevt shifokor sifatida boshladi. Kasbiga muhabbati va izlanuvchanligi tufayli keyinchalik viloyatlararo gospital fizioterapiya bo'linmasi boshlig'i, shifokor-fizioterapevt lavozimiga tayinlandi.

Yillar o'tib, N. Qurbonova-ning tajribasi va salohiyati ham yuksalib bordi. Davolash-profilaktika muassasalari gospitalida fizioterapiya bo'linmasi boshlig'i, so'ngra DPM tibbiyot bo'limi gospitalida fizioterapiya bo'linmasi boshlig'i lavozimlarida samarali faoliyat yuritdi.

Ammo bu yutuqlar ortida ko'pchilik bilmaydigan hayot sinovlari ham bor. Podpolkovnik Nargiza Qurbonova bir voqeani ko'zlarida yosh bilan eslaydi:

– Ishimiz juda mas'uliyatli, shu bois boshida bolalarimga ko'p vaqt ajratilmasdim. Turmush o'rtog'im xorijda ishlardi. Uy-ro'zg'or, farzandlar tarbiyasi va xizmat vazifalari – barchasi zimmamda edi. Bir kuni uyga kirib kelsam, sakkiz yoshli qizim gaz plitaga bo'yi yetmagani-

dan, oyog'i ostiga g'isht qo'yib olib qovurdoq pishirayotgan ekan. Avvaliga juda qo'rqib ketdim. Lekin keyin uning mehr bilan tayyorlagan ovqatini yeb, qalbimda g'urur va minnatdorlik hissi uyg'ongan edi...

O'sha qizaloq – Farangiz Rajabova bugun ulg'ayib, oqila qiz bo'lib yetishgan. U bilan suhbatlashganimizda, onasi haqida shunday samimiy fikrlar bildirdi:

– Onamni juda yaxshi tushunaman. Uning ishi ham, hayoti ham oson bo'lmagan. Akam ikimiz doim onamni qo'llab-quvvatlashga harakat qilamiz. To'g'ri, ba'zan juda sog'inib qolardik. Ayniqsa, maktab davrlarimizda ishdan ertaroq qaytishini kutardik. Qovurdoq pishirgan kunim ham aslida

onamga yordam bermoqchi bo'lganman. O'shandan buyon uni oshxonaga deyarli kiritmayman. Uy yig'ishtirish, mayda-chuyda yumushlarning hammasini zimmamga olganman. Chunki onam qanchalik charchab kelishini ko'rardim, dam olishini istardim.

Farangizning bu so'zlari oddiy xotira emas, balki ona mehnatiga bo'lgan hurmat va ehtiromning ifodasidir. Haqiqatan ham, xizmat formasidagi ayolning ortida uni sog'inib kutuvchi farzandlari, sabr bilan yashovchi oilasi va yillar davomida yig'ilgan fidoyilik qissasi bo'ladi.

Bu borada Nargiza opaning turmush o'rtog'i Muhammadjon aka Yusupov ham fikrlarini bildirdi:



– Nargizaning xizmatini ham, oiladagi mas'uliyatini ham juda yaxshi tushunaman. Bir paytlar xorijda ishlashimga to'g'ri kelganida farzandlar tarbiyasi, uy-ro'zg'or va xizmat vazifalarining barchasi uning zimmasida qolgan. Lekin biror marta shikoyat qilganini eshitmaganman. U har doim kasbiga sadoqat bilan yondashgan. Farzandlarimizning tarbiyasi va hayotdagi yutuqlarida onasining hissasi juda katta. Ular onasiga qarab mehnatsevarlikni, sabrni va kishilarga yaxshilik qilishni o'rganishdi. Hayot yo'limiz davomida turli sinovlarni birga yengib o'tdik. Ammo Nargizaning irodasi, sabr-toqati va

mehr-muhabbati oilamiz uchun hamisha tayanch bo'lib kelgan.

Oq xalat ortida inson dardiga malham bo'luvchi shifokor turadi. Uning qalbida esa xizmat burchi bilan birga bir umr farzandlari uchun namuna bo'lib yashovchi mehribon ona mehri ham mujassam. Nargiza Qurbonovaning hayot yo'li aynan mana shu ikki buyuk mas'uliyatning uyg'unligidan yaralgan jasorat qissasidir. U bosib o'tgan yo'li va bugungi faoliyati bilan ko'plab ayollar uchun ibrat bo'lib kelmoqda.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Zamonaviy xavfsizlik

ILG'OR TEXNOLOGIYALAR
OSOYISHTALIK KAFOLATI

Videokuzatuv kameralari, intellektual tahlil dasturlari va raqamli monitoring tizimlari bilan jihozlangan Tezkor boshqaruv markazlari ichki ishlar organlarida xizmat samaradorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu markazlar vaziyatni real vaqt rejimida kuzatish, xavfli omillarni barvaqt aniqlash hamda jinoyatlarning oldini olishda yuqori natijadorlik ko'rsatmoqda.



Tezkor boshqaruv markaziga ayni kunda jamoat joylari, transport turgunlari va infratuzilma obyektlarida o'rnatilgan 7 mingdan ortiq kuzatuv kameralari integratsiya qilingan.

Bunda, ayniqsa, aholi va sayyohlar gavjum bo'ladigan maskanlarga alohida e'tibor qaratilyapti. Xususan, Imom al-Buxoriy majmuasi hududidagi raqamli tizim to'liq ishga tushirilib,

600 dan ziyod kuzatuv moslamalari boshqaruv markaziga ulandi.

– Markaz sutka davomida uzluksiz monitoring olib boradi va yuzaga kelayotgan favqulodda vaziyatlarga tezkor munosabat bildiradi, – deydi viloyat IIB Tashkiliy boshqarmasi Tezkor boshqaruv markazi YPX katta inspektor-navbatchisi, leytenant Savlat Karimov. – Ishimizning bosh mezon – zamonaviy intellektual tahlil tizimlarini keng joriy etish, jarayonlarni to'liq raqamlashtirish va videokuzatuv qamrovini muntazam oshirib borishdan iborat.

Joriy yil boshidan buyon Tezkor boshqaruv markazi imkoniyatlardan unumli foydalanish natijasida qidiruvdagi 107 nafar shaxs qo'lga olindi, bedarak yo'qolgan 38 nafar fuqaroning yashash yoki turgan joyi aniqlandi. Shuningdek, qidiruvda bo'lgan 195 ta transport vositasi ushlanib, 42 ta jinoyat «issiq izida» fosh etildi.

Tezkor boshqaruv markazining asosiy afzalliklari operativ vaziyatni real vaqt rejimida, uzluksiz monitoring

qilish barobarida, voqea-hodisalar va favqulodda vaziyatlarga javob berish vaqtini maksimal darajada qisqartirish hamda kuch-vositalarini samarali muvofiqlashtirishda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, qiyofani hamda avtotransport vositalarining davlat raqam belgilarini tanuvchi «aqlli» texnologiyalar xavfsizlikni nazorat qilishning yagona markazlashgan modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Qisqasi, ilg'or texnologiyalar hamda inson bilim va tajribasining uyg'unligi asosida faoliyat yurituvchi Tezkor boshqaruv markazi bugun viloyatda osoyishtalik va jamoat tartibini ta'minlashda muhim bo'g'ingga aylandi. Shu jihatdan, markaz faoliyati aholi xavfsizligini kafolatlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda zamonaviy xavfsizlik tizimining ajralmas qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Abu KENJAYEV olgan surat.



Яхшилар ёди

Тахририятимиз ҳовлисига устоз бир неча туп мевали ниҳоллар ўтказган эдилар. Ўшанда: «Пенсияга чиқсам, шу ниҳолларга қараб мени эслаб турарсизлар», – дегандилар. Улардан анор бултур ҳосилга кирди. Гилос эса бу йил нишона берди.

Жамоамизда бугунги кунда меҳнат қилаётган ижодкорларнинг аксарияти Садриддин акадан маҳорат сирларини ўрганган. Унинг эрка шогирди майор Иномжон Раҳимхўжаев эса ИИБ ҳузуридаги ЖИЭД нашри бўлган «Vaqt – Время» газетасининг етакчи мутахассис-муҳаррири.

Садриддин Шамсидинов том маънода соҳага ихтисослашган профессионал журналист эди. Бир неча китоблар муаллифи. ИИБ соҳавий хизматлари, хусусан қўриқлаш, профилактика, йўл ҳаракати хавф-

САДРИДДИН АКА ЭККАН НИҲОЛЛАР

Тунов куни компьютерда ишлаш учун кўзойнагимни тақаётиб, Садриддин акани эслаб кетдим. Боиси, кўзойнакни менга шу инсон совға қилган эди.



сизлиги каби соҳавий хизматлар ходимлари фаолияти ҳақидаги, шунингдек «Изқувар хотиралари» туркумидаги

мақолаларини муштарийлар севиб мутолаа қилишарди. Устознинг детектив ҳикояларини ҳам ушбу жанр мухлис-

лари интиқлик билан кутишарди.

Садриддин ака узок йиллар тахририятнинг касба уюшмасига раҳбарлик қилди. Ўша йиллари жамоамизда меҳнат қилганлар унинг ғамхўрликларини ҳали-ҳануз миннатдорлик билан эслашади.

– Жарроҳлик операциясини бошимдан ўтказганимда, Садриддин ака моддий ёрдам олишимга кўмаклашганлар, – дея хотирлайди ҳамкасбимиз Муқаддас Орифжонов.

Ходимларнинг яхши ёмон кунда ҳамманинг бошини қовуштирарди. Жойлардаги ўз мухбирларимизнинг тўй-маъракаларига ҳам уч-тўрт ҳам-

касбимизни эргаштириб борарди. Ҳатто пенсияга чиққанидан кейин ҳам бизларни таваллуд айёмимиз билан телеграм каналимиз орқали қутлаб турарди.

Ҳа, Садриддин ака ниҳоятда самимий, меҳр-оқибатли инсон эди. Юриш-туриши, гап-сўзи билан одамийликдан сабоқ берарди. Бугун устоз орамизда йўқ, лекин у ўтказган ниҳоллар мева беряпти. Садриддин ака тарбиялаган шогирдлар унинг ишини давом эттириб, матбуотда ўз ўрнини топиб, ўз сўзини айтаяпти.

Бобомурод ТОШЕВ

Фахрийлар — фахримиз

ЕРДА ҚОЛ(МА)ГАН ҲАҚИҚАТ

1981 йилнинг баҳори. Бўстонлиқ туманининг сўлим Сижжак қишлоғидан Фазалкент томон тушиб келиш йўлида мудҳиш воқеа юз берди. Номаълум автомашина йўловчини уриб юбориб, ҳодиса жойидан қочиб кетди. Жабрланувчи ҳаётдан кўз юмди. Жиноятни «иссиқ изида» очиш, қонун устуворлиги ва адолатни таъминлаш мақсадида туман Ички ишлар бўлимининг бутун шахсий таркиби оёққа турди.

Ўша кезлари ҳамманинг эътибори туман ИИБ Давлат автомобиль назорати (ДАН) бўлини масиға бор-йўғи бир неча кун илгари бошлиқ этиб тайинланган Одилжон Дадажоновга қаратилган эди. Бошқа ҳудуддан раҳбар бўлиб келган ёш ходим ўзининг дастлабки жиддий синовида қандай маҳорат ва профессионаллик кўрсатаркин, деган савол кўпчилиكنи ўйга соларди.

Одилжон Дадажонов воқеа жойига етиб келгач, ҳиссиётларга берилмай, йўл четини синчковлик билан кузата бошлади. У яхши биларди: жиноятчи қанчалик усталлик билан яширинишга уринмасин, барибир из қолдиради. Бир пайт унинг нигоҳи йўл четидаги ўтлар орасида ялтираб турган шиша бўлагига тушди. Бу автомашина фарасининг синган ойнаси эди. Кўп ўтмай, бу ўша



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

даврнинг энг оммабоп ва нуфузли автоуловларидан бўлган «ГАЗ-24» русумли автомашинанинг ўнг томон фара синиклари экани маълум бўлди.

Янги раҳбарнинг қатъий таклифи билан тезкор режа ишлаб чиқилди. Шунга кўра, Сижжак қишлоғи ҳудудидаги хонадонлар, дала ҳовлилари участка нозирлари томонидан кўздан кечирила бошланди. ДАН ходимлари эса Чирчиқ

ва Тошкент шаҳарларида рўйхатда турган «Волга» машиналарининг ҳаракат йўналишларини синчиклаб таҳлил қилишга киришди. Юксак касбий маҳорат ва тезкорлик сабаб, бир сутка ўтмай, инсон ўлимига сабабчи бўлган ҳайдовчи аниқланиб, қўлга олинди.

Бу Одилжон Дадажоновнинг тоғли тумандаги сермашаққат фаолиятининг дебочаси эди. Унинг иш тажрибасида бу каби му-



раккаб вазиятлар, тезкор очилган жиноятлар жуда кўп бўлган.

Тоғли ҳудудда муваффақиятли фаолият кўрсатган қаҳрамонимиз 1985 йилда Тошкент тумани ИИБ ДАН бўлини масиға бошлиғи лавозимиға тайинланди.

Одилжон Дадажонов хизмат фаолияти давомида, аввало, жамоада ҳамжиҳатлиكنи ва ўзаро ишонч муҳитини ярата олди. Кўрилган изчил чоратадбирлар натижасида туманда йўл-транспорт ҳодисалари ва улар билан боғлиқ жиноятлар сони кескин камайди.

Йиллар дарёдек оқиб ўтади. Ички ишлар органидаги хизматини оддий инспекторликдан бошлаб, туман ИИБ ДАН бўлини масиға

си бошлиғи даражасига кўтарилган истеъфодаги майор Одилжон Дадажонов кутлуғ 80 ёшини қаршилади.

Вақт – олий ҳакам. У сочларга оқ оралатади, юзларга йиллар муҳрини босади, аммо касбга бўлган муҳаббатни, Ватанга берилган қасамёдга садоқатни заррача заифлаштира олмайди. Истеъфодаги майор Одилжон Дадажоновнинг саксон йиллик умр дафтарини варақлаганимизда эса, унда фақат бир соҳа ходимининг эмас, балки адолат учун урган буюк бир қалбнинг уришини тинглаймиз.

Аброр ПОЁНОВ,
катта сержант.

Тошкент вилояти.

27-IYUN – MATBUOT VA OMMAVIY

Bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat «to‘rtinchi hokimiyat», balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda.

Shavkat MIRZIYOYEV

DOIM AXBOROT MAYDONIDA

Farg‘ona viloyati IIB JXX YHXB Axborot xizmati rahbari, kapitan Elbek Qobilovning har bir ish kuni juda qaynoq o‘tadi. Bir qarasangiz, televideniya intervyu berayotgan bo‘lsa, ma‘lum muddatdan so‘ng qaysidir ta‘lim dargohida targ‘ibot tadbiri o‘tkazayotganiga guvoh bo‘lasiz. Matbuot va press-turlar tashkil etib, tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklardan ommani xabardor qiladi, radio orqali chiqishlarida haydovchilarni qiziqtirgan savollarga javob beradi.



– Viloyatda 5 ta telekanal, 2 ta radio va 40 dan ziyod bosma nashrlar faoliyat olib boradi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Shuningdek, internet nashrlari va media sohasida faoliyat olib borayotgan blogerlar ham juda ko‘p. Ular bilan hamkorlikda ishlash men uchun juda maroqli. Yo‘l harakati qoidalarini targ‘ib qilish va haydovchilik madaniyatini yuksaltirish barchamizning ustuvor maqsadimiz sanaladi. Shu bois yangi-yangi ko‘rsatuv hamda eshittirishlar ustida ish olib boryapmiz.


Joriy yilning o‘tgan davrida Axborot xizmati xodimlari tomonidan 971 ta targ‘ibot materiallari va sohaga oid axborotlar tayyorlanib, 143 tasi telekanallarda, 185 tasi radio orqali, 22 tasi gazeta va jurnallarda, 621 tasi esa ijtimoiy tarmoq sahifalarida e‘lon qilindi.

Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.

Farg‘ona viloyati.

HAQIQAT YO‘LIDAGI FIDOYILIK

Ichki ishlar organlarida Axborot xizmati xodimi sifatida faoliyat yuritir ekanman, faoliyatimizda xolislik va mas‘uliyat ustuvor ahamiyat kasb etishini his qilaman. Aholiga xolis hamda haqqoniy ma‘lumot yetkazish, ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqdigi va shaffofligini ta‘minlash, jamoatchilik bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish faoliyatimning asosiy mezonidir.



Zamonaviy jurnalistika doimiy o‘zgarib, rivojlanib bormoqda. Bu esa jurnalistdan muntazam o‘qib-o‘rganishni, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashni, zamonaviy axborot texnologiyalarini puxta o‘zlashtirishni talab etadi. Zero, bugun nafaqat qalam, balki fotoapparat, videokamera, montaj dasturlari va raqamli platformalar ham jurnalistning ish quroliga aylangan.

Men uchun eng katta mukofot va eng yuksak e‘tirof jamoatchilik ishonchidir. Buni faqat halol mehnat, xolislik hamda fidoyilik bilan qozonish mumkin. Uni saqlab qolish esa xodim zimmasiga yanada katta mas‘uliyat yuklaydi. Shu sababli har bir materialda haqqoniylik, xolislik va tezkorlik tamoyillariga sodiq qolishni kasbiy burchim deb bilaman. Chunki haqiqatga xizmat qilish – jurnalistning eng oliy burchidir.

Zokir ISMOILOV,
Xorazm viloyati IIB Axborot xizmati boshlig‘i, podpolkovnik.

Matbuot xizmatining kundalik faoliyati keng qamrovli vazifalarni o‘z ichiga oladi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish, yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash, profilaktik tadbirlar, yoshlar siyosati, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar hamda ichki ishlar organlari xodimlarining fidokorona xizmatidan aholini xabardor qilish shular jumlasidan. Har bir tayyorlangan maqola, har bir foto va videolavha, har bir axborot ortida mehnat, izlanish hamda mas‘uliyat turadi.

Jizzax viloyati IIB Axborot xizmati produseri, kapitan Baxtiyor Tog‘ayev asl ijodkor sifatida tanilgan. U televideniye sohasiga qadam qo‘yganida yosh edi. Ustozlardan o‘rgandi, o‘zi ham izlanishdan tolmadi. Ko‘p o‘tmay, Jizzax viloyati televideniyesining yetakchi suxandoni va tajribali muxbirlaridan biriga aylandi.



YOQIMLI OVOZ VA MAHORAT SOHIBI

2020-yildan e‘tiboran uning ichki ishlar tizimidagi xizmat faoliyati boshlandi. Baxtiyor Tog‘ayev qisqa fursatda shaxsiy tarkib va rahbariyat ishonchini qozondi. Natijada soha axborot xizmati faoliyatida o‘ziga xos jonlanish, yangi nigoh va yangi ovoz paydo bo‘ldi.

Uning muddatidan oldin «kapitan» maxsus unvoni berilgan, bu xushxabar butun voha jurnalistlarini birdek quvontirdi. Binobarin, hamkasblarining jurnalistik so‘rovlari u tomonidan hech qachon e‘tiborsiz qoldirilmaydi. Savollarga hamisha o‘z vaqtida va batafsil javob olishda uning xizmati katta. Birgina joriy yilning o‘zida viloyat ichki ishlar organlari faoliyatiga doir respublika va mahalliy

ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan media mahsulotlar soni 1500 dan ziyodni tashkil etdi.

Kapitan Baxtiyor Tog‘ayev ichki ishlar organi xodimi va professional jurnalist sifatida ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy sahifalari orqali ham soha imini oshirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Birgina YouTube kanalida mingdan ziyod obunachilarga ega bo‘lgan ijodkor kelgusida o‘z lavhalarini, maqolalari va ijodiy ishlarini alohida to‘plam hamda esdaliklar shaklida chop etishni rejalashtirgan.

Muqaddas SAPAROVA,
o‘z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI

XOLISLIK MEZONI



Ichki ishlar organlari faoliyatini yoritishda har bir axborot aniqlikni, har bir izoh ehtiyotkorlikni, har bir bayon esa chuqur mulohazani talab etadi. Namangan viloyati IIB Axborot xizmati rahbari, podpolkovnik Xurshid Soliyev ana shu murakkab, ammo sharaflı yo'lda so'z mas'uliyatini his etgan holda xizmat qilayotgan hamkasblarimizdan biridir.

bayonotlar tayyorlash emas, o'z navbatida, fuqarolarning savollari-ga vaqtida, tushunarli va ishonchli javob berishdan ham iboratdir. Shu bois viloyat IIB faoliyatiga oid yangiliklar, profilaktik tadbirlar, tezkor xabarlar va ijtimoiy tashabbuslar jamoatchilikka sodda, ravon va dailarga tayangan holda yetkaziladi.

U tezkorlikni aniqlik bilan uyg'unlashtiradi. Har bir xabar ortidagi faktlarni sinchiklab tekshiradi, har bir jumla mas'uliyat mezoni bilan o'lchanadi. Chunki noto'g'ri yoki shoshma-shosharlik bilan berilgan axborot jamiyatda asossiz xulosalarga olib kelishi mumkin. Podpolkovnik Xurshid Soliyev boshchiligidagi jamoa ana shu xatarlardan xoli ishlashni o'ziga qoida qilib olgan.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

– So'z – jamiyat kayfiyatiga, odamlar ongiga va davlat tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan qudratli vosita. Jamoat oldida so'z ortida sharaf va javobgarlik bor, shuning uchun har bir bayonotda faqat ishonch va aniqlik bo'lishi kerak, – deydi lavhamiz qahramoni.

Xurshid Soliyev faoliyatidagi eng muhim jihat – axborotni jamiyat bilan tizim o'rtasidagi ko'priikka aylantira olganidir. U uchun axborot xizmatida ishlash faqat press-revizlar yoki rasmiy

ZABARDAST JURNALIST

...Kitobga bo'lgan mehr Bahodirni erta qalam tebratishga undadi – o'quvchilik davridayoq tuman gazetasida maqolalari chop etildi.

1996-yilda Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasiga ishga taklif etilishi Bahodir Ergashev faoliyatida yangi davrni boshladi. Taniqli ustozlardan kasb sirlarini o'rgangan ijodkor tez orada oddiy muxbirlardan viloyat radiosi bosh muharriri lavozimigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Uning muallifligidagi «Umid g'unchalari», «Ko'ngil yog'dusi», «Ziynat» kabi turkum eshittirishlar tinglovchilar e'tirofini qozondi. Har bir chiqishida jurnalistning qat'iy fuqarolik pozitsiyasi va yuksak mahorati yaqqol ko'zga tashlanib turdi.



2003-yili hamkasbimiz hayotida burilish yuz berdi – u viloyat IIB matbuot xizmatiga ishga taklif qilindi. Respublika nashrlari va telekanallarda chiqishlar qilish bilan birga, 2005-yilda boshqarma qoshida zamonaviy telestudiya tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. Boshqarma rahbariyati bu taklifni qo'llab-quvvatladi va ko'p o'tmay «Tezkor xabarlar» va «02 aloqada» ko'rsatuvlari muntazam efirga uzatila boshlandi. U 2011-yildan faoliyatini Yong'in xavfsizligi boshqarmasida davom ettirib, bu yerda ham zamonaviy matbuot xizmati faoliyatini yo'lga qo'ydi. Samarali xizmatlari uchun «mayor» unvoniga loyiq ko'rildi.

2016-yili pensiyaga chiqqan ijodkor 2018-yildan buyon Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasi direktor o'rinbosari lavozimida mehnat qilib kelmoqda. B.Ergashev rahbarligida efirga uzatilayotgan «Islohotlar amalda», «Tadbirkor», «Tafsilot», «Jarayon», «Obod manzillar», «Yashil sayyora», «Bir osmon ostida», «Manzillim O'zbekiston» kabi ko'rsatuv va eshittirishlarda mamlakatimizdagi islohotlar mazmuni, inson qadrini ulug'lash g'oyasi mahorat bilan yoritilmoqda.

Tajribali ustoz sifatida u ko'plab shogirdlar tarbiyaladi, bugungi kunda uning izdoshlari viloyat IIB, FVB tizimlarida hamda respublika radio va televideniye sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Zabardast jurnalist, iste'fodagi mayor Bahodir Ergashevni viloyat ichki ishlar organlari tizimida-gi ko'plab xodimlar bugun ham hurmat bilan e'tirof etadi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

FAOL TARG'IBOTCHI

Andijon viloyati IIB JXX YHXB Axborot xizmati guruhi katta mutaxassisi, kapitan Abdumajid Raimjonov sermazmun va tezkor chiqishlari bilan allaqachon jamoatchilik e'tiborini qozongan.

U goh yo'l harakati xavfsizligiga oid hayotiy tavsiyalar beradi, goh sohadagi muhim yangiliklar va o'zgarishlar haqida aholini xabardor qiladi. Bu sa'y-harakatlar nafaqat fuqarolarning huquqiy madaniyati va bilimni oshirishga, balki hududda YTXning sezilarli darajada kamayishiga ham xizmat qilmoqda.

– Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik uchun asosiy axborot manbayiga aylandi, – deydi kapitan A.Raimjonov. – Shu bois Telegram, Facebook va Instagram tarmoqlaridagi sahifalarimizni faol yuritib kelmoqdamiz. Ular orqali yiliga 400 dan ortiq post joylashtiramiz, ommaviy axborot vositalari orqali esa 200 dan ziyod chiqishlar qilamiz.

U virtual olam bilan cheklanib qolmay, yil davomida aholi gavjum joylar, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida 500 dan ziyod targ'ibot va tushuntirish tadbirlarini o'tkazadi. Bunday samarali targ'ibot bois andijonliklarda yo'l harakatiga oid biror savol tug'ilsa, ular avvalo kapitan Raimjonovning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga murojaat qiladi. Kasbiga yuksak mas'uliyat bilan yondashadigan A. Raimjonov kabi xodimlarning borligi yo'llarimiz xavfsizligi, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligining muhim kafolatidir.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

UNIVERSAL MUTAXASSIS

IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti axborot guruhi bosh mutaxassisi, mayor Azamat Ahmatov o'z kasbining fidoyilaridan biridir.

U 2016-yilda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini tamomlab faoliyatini Toshkent viloyati IIB huzuridagi Jazoni ijro etish bo'limi 7-sonli koloniyasida tarbiyaviy ishlar bo'limi turkum boshlig'i sifatida boshlagan.

Azamatni yaqindan bilganlar, uning doimo yuqori kayfiyatda yuradigan, atrofida qilargalarga faqat pozitiv energiya ulashuvchi inson ekanligini ta'kidlashadi. Uning hayotiy kuch-g'ayrati har qanday og'ir vaziyatda ham to'g'ri yechim topishga yordam beradi. Eng muhimi, u xizmat vaqtida ham, shaxsiy hayotda ham barcha ishga birdek ulgurib, vaqtdan unumli foydalana oladigan kasb egasidir. Qahramonimizning serqirra faoliyati Toshkent viloyati IIBB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi katta inspektori hamda Bo'stonliq tumani IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash bo'limidagi xizmatlarida yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Keyinchalik u viloyat IIBB YHXBda umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish yo'nalishida o'z mahoratini namoyon etdi.

Tajriba va ijodiy yondashuv uni matbuot va axborot sohasiga yanada yaqinlashtirdi. OAV bilan hamkorlik qilish, departament



faoliyatini keng jamoatchilikka xolis va tezkor yetkazishda samarali mehnat qilmoqda. O'zining mehnatsevarligi bilan jamoada hurmat qozongan mayor Azamat Ahmatovni va u orqali tizimdagi barcha matbuot xizmati xodimlarini kasb bayramlari bilan muborakbod etamiz!

Aziza BOHODIROVA,
mayor.

TA'SIRCHAN SO'Z AYTISH MAS'ULIYATI



Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyatini xolis va tezkor yoritish, tizim shaffofligini ta'minlashdek mas'uliyatli vazifani IIV Axborot xizmati amalga oshirmoqda. Bu yo'lda Axborot xizmatining Elektron ommaviy axborot vositalari va veb-resurslar bilan ishlash bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Sayfiddin To'raxo'jayevning xizmatlari alohida e'tiborga loyiq.

2001-yildan buyon ichki ishlar organlari tizimida turli lavozimlarda faoliyat yuritib kelayotgan Sayfiddin To'raxo'jayev sohaning vatanparvar qiyofasini, xodimlarning xalq osoyishtaligi yo'lidagi fidokorona xizmati va yurt tinchligi uchun olib borilayotgan sa'y-harakatlarni keng jamoatchilikka yetkazib kelmoqda. Ichki ishlar vazirligining 80 ming nafarga yaqin kuzatuvchiga ega rasmiy Telegram kanali, 236 mingdan ortiq obunachisi bo'lgan Instagram sahifasi hamda 700 ming nafarga yaqin auditoriyani jamlagan YouTube kanali va boshqa rasmiy platformalar orqali ichki ishlar organlarining faoliyati xolis va ochiq yoritib borilmoqda.

Jadal axborot asrida birgina xato ma'lumot minglab insonlarning fikriga salbiy ta'sir qilishi mumkin, – deydi podpolkovnik Sayfiddin To'raxo'jayev. – Ichki ishlar organlari imijini oshirishda faqatgina targ'ibot emas, balki haqiqatni ko'rsatish, mashaqatli xizmat ortidagi fidoyilikni ochib berish – xalq bilan tizim o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Axborot maydonida haqiqatni himoya qilish ham jasorat talab etadi. Kasbga sadoqat, so'zga mas'uliyat va Vatanga muhabbatni o'z faoliyatida uyg'unlashtirgan Sayfiddin To'raxo'jayev kabi xodimlar tizimning haqiqiy faxridir.

Dilrabo ABDIHAMIDOVA,
leytenant.



O'ZIMIZNING «AVTOHAMROH»

Yo'llarda harakatlanish madaniyati shunchaki oddiy qoidalar emas, balki inson hayotini asrovchi va jamiyatning ma'naviy darajasini ko'rsatuvchi muhim omildir. Chorak asr bo'libdiki, «Avtohamroh» jurnali har bir haydovchi va piyodaga bu boradagi hayotiy tushunchalarni yetkazib berishdek ezgu maqsad yo'lida sodiq va sobit qadam.

«Yuqori darajadagi yo'l harakati madaniyati uchun!» shiori ostida chop etilayotgan nashr sahifalarida ichki ishlar organlari yo'l harakati xavfsizligi xizmati va boshqa hamkor tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar keng yoritib kelinmoqda. E'tiborli jihati, jurnal ijodiy jamoasi yo'llarda tartib-intizomni targ'ib qilishda xalqimizning asriy milliy qadriyatlariga, boy tariximiz va madaniy merosimizga tayanadi.

– Har bir insonda yo'l qoidalariga hurmat hissi maktabdan emas, balki hali tili chiqmagan bog'cha yoshidanoq shakllanishi kerak, – deydi «Avtohamroh» jurnali bosh muharriri Qumri Karimova. – Zero, transport vositasi bugun hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Bu esa yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash borasida jiddiy mulohaza yuritishni va qat'iy belgilangan tartiblarga bo'ysunishni taqozo etadi. Shu bois jurnalda chop etilayotgan har bir material orqali yurtdoshlarimiz ong-u shuuriga harakatlanish madaniyatini singdirishga intilamiz.



Doim yangicha targ'ibot uslublari va zamonaviy yondashuvlar ustida izlanishdamiz.

Shu o'rinda tahririyat ijodiy jamoasi tomonidan asos solingan o'ziga xos an'analarni ta'kidlash joiz. Jamoa sa'y-harakati bilan bog'cha tarbiyalanuvchilari uchun hayotiy lavhalar bilan boyitilgan sodda va qiziqarli metodik qo'llanmalar, maktab o'quvchilari uchun maxsus o'quv dasturlari, ko'zi ojizlar uchun Brayl alifbosida yo'l harakati qoidalarini bo'yicha o'quv qo'llanmasi hamda plakatlar to'plami yaratildi. Shuningdek, «Tomosha» bolalar teatr-studiyasi bilan hamkorlikda «Chorraha» teatrlashgan musiqiy dasturlari namoyish etib kelinmoqda. Bundan tashqari, o'smirlar uchun moped va skuterlarni boshqarish qoidalarini aks etgan «A» kategoriyali yangi o'quv qo'llanmasi tayyorlangani nashrning zamon bilan hamnafas odimlayotganidan dalolat beradi.

Sirasini aytganda, «Avtohamroh» bugun haqiqiy xalqchil nashrga aylangan. U qonun ustuvorligini ta'minlashda huquq-tartibot organlariga yelkadosh bo'lib, yurtimiz yo'llarida madaniyatli haydovchi va piyodalar avlodini tarbiyalash yo'lida charchoq bilmay xizmat qilmoqda.

Niyatimiz – yo'llarimiz bexatar, hamrohimiz hamisha sodiq bo'lsin!

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

ГРАНИ СОТРУДНИЧЕСТВА

В городе Бишкек (Кыргызстан) состоялось VI Совещание руководителей столичных подразделений органов внутренних дел государств – участников СНГ.

В Совещании приняли участие делегации столичных подразделений МВД Азербайджана, Армении, Беларуси, Казахстана, Кыргызстана, России, Таджикистана, Туркменистана, Узбекистана, представители Совета министров внутренних дел государств – участников СНГ при Исполкоме СНГ, Бюро по координации борьбы с организованной преступностью

и иными опасными видами преступлений на территории государств – участников СНГ (БКБОП).

В формате мероприятия обсуждены вопросы, касающиеся:

стратегий по недопущению участия несовершеннолетних и молодежи в совершении преступлений общегосударственной направленности;

противодействия вовлечению молодежи в экстремистские и радикальные группировки;

мер по предотвращению формирования антиобщественного мировоззрения и пропаганды криминального образа жизни среди молодежи посредством использования информационно-коммуникационных технологий и искусственного интеллекта.

По итогам работы подписан Протокол, закрепивший достигнутые договоренности.



В Минске прошло заседание Технического совета Департамента охраны МВД Беларуси, в работе которого приняли участие делегации Департамента охраны при МВД Узбекистана и Главного управления вневедомственной охраны Росгвардии.

Рассмотрены вопросы применения современных технологий в сфере охранной деятельности. В центре внимания – стандартизация технических средств, внедрение систем видеонаблюдения и искусственного интеллекта.

Члены делегаций изучили деятельность подразделений службы охраны Минской и Брестской областей, ознакомились с экспозицией Третьей международной выставки «Национальная безопасность. Беларусь – 2026». На выставке были представлены средства и системы охраны для различных объектов, обеспечивающие использование методов ситуационной аналитики, тепловизионного наблюдения, интеграции информационных ресурсов в единую экосистему.

Соб. корр.

Ко Дню работников печати и средств массовой информации

ОПЕРАТИВНО И ДОСТОВЕРНО

Сегодня перед Службой охраны при ГУВД города Ташкента стоят новые ориентиры, продиктованные временем. Среди них – переход на цифровые стандарты безопасности, интеграция систем охраны с концепцией «Безопасный город», обеспечение круглосуточного мониторинга вверенных объектов с помощью современных технических систем сигнализации.



Освещение данной многогранной деятельности, доведение до населения актуальной информации об инновационных системах безопасности возложено на Информационную службу, которую вот уже семь лет возглавляет подполковник Камила Оразтаева. За ее плечами 27 лет службы в ОВД. Большой опыт позволяет ей эффективно работать в

информационном потоке и координировать медиаповестку.

– Наши материалы – это прежде всего репортажи, очерки, сюжеты о реальной работе подразделений и людях, которые здесь служат, – отмечает подполковник К. Оразтаева. – Важное направление – информационные медиакампании и профилактика. Мы рассказыва-

ем жителям столицы о технологических новшествах: от установки экстренных кнопок вызова «SOS» до интеллектуальных охранных систем. Чтобы быть на одной волне с аудиторией, развиваем присутствие в цифровом пространстве в Telegram, Instagram, YouTube. При этом сохраняем синергию с классическими СМИ: с телевидением, радио, газетами, и прежде всего с журналистами ведомственного издания «Postda – На посту – At the post».

Наши специалисты оперативны и мобильны. Они всегда готовы к выездам на места событий. За каждым успешным медиапроектом, за выездным репортажем стоит коллектив, объединенный общей задачей. В команде активно работают лейтенант Иззатилла Хусайнов, младший сержант Акбар Самандаров, рядовой Жахонгир Эркинов. Цель – своевременно и достоверно доносить до граждан важную информацию.

Рафик ЕНИКЕЕВ.

Аспект профилактики

ОБРЕСТИ ВЕРУ В СЕБЯ

В семье Нодир (имя изменено) – матери двоих детей из махаллы Файзобод Ташкентского района – сложилась тяжелая атмосфера. Супруг проявлял к ней агрессию, унижал. Нодира находилась в подавленном состоянии...

– По данному факту приняты меры. С участием представителей хокимията, комиссии по укреплению семейных ценностей проведена профилактическая работа, – говорит старший инспектор по вопросам женщин ОПП СОБ УВД Ташкентского района капитан Мухаббат Сохибназарова. – Нодире выдан охранный ордер. Ее супругу установлены ограничения, он предупрежден: в случае продолжения антисоциального поведения будет привлечен к ответственности.

Деятельность капитана М. Сохибназаровой сосредоточена на защите прав женщин, ограждении от притеснения и насилия. Важными направлениями работы являются повышение правовой культуры соотечественниц, раннее предупреждение правонарушений с их стороны.

– Отдельный аспект – работа с женщинами, состоящими на пробационном учете. Их у нас 54. Осуществляем деятельность с 26 ранее судимыми женщинами. В центре внимания несовершеннолетние девушки, состоящие на учете в органах правопорядка и образовательных учреждениях. Стремимся отвести от неверного шага, – рассказывает героиня очерка.



Инспектор по вопросам женщин взаимодействует с коллегами из других служб, активом махаллей, органами юстиции, здравоохранения, образования.

– Контингент немалый. Это жительницы 63 махаллей, – продолжает М. Сохибназарова. – Всегда могу положиться на содействие коллег, в числе которых старший инспектор профилактики махаллы Гултепа капитан Гайрат Махмудов, инспекторы-психологи по вопросам несовершеннолетних капитан Гавхар Ядгарова, лейтенант Дилафруз Фахриддинова, представители махаллей – Хадича Турсунова из МСГ «Алишер Навои», Салима Туропова из МСГ «Корасарой» и другие...

Чтобы поддержать женщину в трудный период жизни, нужно сделать многое. Но главное, с чего стоит начать, – это завоевать ее доверие.

– Надо помочь обрести веру в себя, – утверждает героиня очерка. – Организовываем юридические консультации, помогаем оформлять документы, например, для взыскания алиментов с супруга, уклоняющегося от содержания детей. Совместно со старейшинами примиряем супругов, находящихся на грани развода.

В графике служебных будней капитана М. Сохибназаровой мероприятия по широкому охвату населения профилактической работой.

– Недавно в махалле Хасанбой организовали мероприятия «Я сильная женщина», «Знаете ли вы свои права и обязанности?». Было подчеркнуто, что в республике уделяется особое внимание всесторонней поддержке женщин и девушек, создаются необходимые условия для самореализации, – делится М. Сохибназарова. – Встреча состоялась и в Университете Абу Райхана Беруни. Речь шла об общественно-политической активности девушек. Такого рода мероприятия мотивируют на достижение благородных целей.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

Ташкентская область.



www.youtube.com/@Postda_IV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

► **Graduation ceremony****GRADUATES READY
FOR SERVICE**

As a result of reforms implemented in recent years, the Ministry of internal affairs Academy has become a modern educational institution. New mechanisms for training personnel have been introduced, and the dual education system, launched at the President's initiative, has enabled cadets to combine their theoretical knowledge with practical experience.

A ceremony was held at the «Jar» sports and health complex in the capital to award diplomas and officer ranks to the graduates of the Ministry of internal affairs Academy. The ceremony was attended by the Minister of internal affairs, lieutenant general Aziz Tashpulatov, members of the Senate of the Oliy Majlis, deputies of the Legislative chamber, and representatives of law enforcement and military structures.

This year, 900 cadets graduated from the Academy, of whom nearly 100 are women. 33 graduates received diplomas with honours, and a number of cadets were awarded state scholarships and prizes. The young officers will now begin their service in local internal affairs bodies.

► **Hero of the week****COURAGE AGAINST THE FLAMES**

When a fire broke out in the village of Shimoliy Arablar in the Gijduvon district, the prevention inspector, lieutenant Abdullajon Qochqorov, saw black smoke from a distance and immediately rushed to the scene. He evacuated residents to a safe area and began to contain the blaze by drawing water from a neighbouring house. As a result, the fire was prevented from spreading to

other properties and was extinguished in cooperation with the fire and rescue service.

According to citizen O. Jurayev, the young officer's swift actions prevented a major disaster. No one was injured in the incident, and the citizens' homes and property were saved. This incident once again demonstrated the importance of swiftness, responsibility, and courage.

Abdullajon Qochqorov, who graduated from the Ministry of internal affairs Academy last year, is currently serving as a prevention inspector at the Ghijduvon district DIA Public security and public order department. In the «Tarkhanon» AMC where he serves, no crime has been recorded. The head of the mahalla, Sobir Jurayev, and his mentor, major Bobir Homidov, particularly commend the young officer for his achievements and dedication.

► **Forum****YOUTH ARE BUILDING
THE NEW UZBEKISTAN**

The 6th Republican Youth Forum for young staff and military personnel of the internal affairs bodies, under the slogan «Youth are building the New Uzbekistan!», was held in the city of Samarkand. As part of the forum, sports, intellectual and professional competitions were organised, where participants showcased their knowledge and skills.

In the sports competitions, the Navoi regional DIA won the «Combat march» event, while the Andijan regional DIA was victorious in the «CrossFit» contest. In the inaugural «Games of the future», the team



from the Sirdarya regional DIA took first place, while in the volleyball competition, the young staff of the Department of penitentiary service under the Ministry of internal affairs claimed the top spot.


In the «Most active youth leader» competition, the winner was senior lieutenant Asliddin Abduraimov, a representative of the Tashkent regional DIA. The Surkhandarya Regional DIA team triumphed in the «Intellectual game» held in the Registan square. In the overall team standings, the Samarkand regional DIA took first place, and prize-winners were awarded by colonel Diyorbek Sattorov.

► **The work behind the information****CONSTANTLY SEEKING,
ASPIRING...**

– Although the Information service team of the Sirdaryo regional DIA is not large in number, the tasks set before it are wide-ranging. Every day, the team travels to remote areas to cover the work of the internal affairs officers serving to maintain public order and safety, striving to provide the public with prompt and reliable information, – says the head of the unit, lieutenant colonel Doston Shamsiddinov.

Often, the demands of the job take priority, and staff will interrupt filming or interviews to rush to the scene of an incident. In such situations, even if filming continues late into the evening, the Information service team strives to see a job through to the end.

During the criminal trial in the Guliston district, the author realised one truth: a person who is distant from a spiritual and educational environment and wholesome information is more likely to go astray. For this reason, the Information service team continues to strive and seek new ways to provide the public with accurate information and to raise legal awareness and culture.



Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.



«RAQAMLI» OG'RIQLAR

yoxud ko'zimiz va qulog'imizga ishonmaydigan davr keldimi?

KIBER TUZOQLAR

Hamkasbimiz Zuhra opaning salom-alikni ham qisqa qilib, kutilmaganda: «Qizlar, ehtiyot bo'linglar, hozir aldov qo'ng'iroqlari juda ko'payibdi», deyishi hammamizning e'tiborimizni tortdi. So'ng o'zidagi vahima va xavotir sababini ochiqalay boshladi:

– Qizim kecha yig'lab qo'ng'iroq qildi: «Onajon, o'qishda oyog'im qayrilib, yiqilib tushdim, meni «Tez yordam»da shifoxonaga olib ketishyapti...» Uning so'zlarini aniq anglab ulgurmasimdan aloqa uzildi. O'zim qo'ng'iroq qildim, lekin bog'lana olmadim. Ustozi ham javob bermadi. Turmush o'rtog'imga xabar berib, ikkimiz ikki tomondan qizim o'qiydigan litseyga shoshildik. Borsak... qizim odatdagidek darsda o'tiribdi. Sog'-salomat.

Zuhra opa gapini tugatishi bilanoq boshqa bir hamkasbimiz Lola dugonasining boshiga tushgan ko'rgilikni so'zlab ketdi:



– O'tgan yili dugonamga bankdan qarzidorlik haqida xat keldi. Surishtirib ko'rishsa, kimdir uning shaxsiy ma'lumotlari orqali nomiga 20 million so'm onlayn kredit rasmiylashtirgan ekan. Bechora bir haftadan keyin xorijga sayohatga ketayotgan edi. Agar qarzni to'lamasa, yurtdan chiqishga taqiq qo'yiladi. Chet elga borish orzusi, sotib olgan chip-talari kuyib ketmasligi uchun u noiloj o'sha qarzni to'lashga majbur bo'ldi. Alamlisi, o'zining aybsiz ekanligini isbotlay olmadi.

– Voy, guldek jiyanimning hayoti shu telefon, onlayn o'yin va kredit o'lgurni deb buzilib ketdi, – deya suhbatga Mastura opa ham qo'shildi. – Kuyov onlayn qimorga mukkasidan ketgan ekan. Bildirmasdan jiyanimning telefonidan uning nomiga 27 million so'm kredit olib, hammasini «1XBET»ga tikib yutqazibdi. Oqibatda oila ajrashdi. Qiz sho'rlik ajrashganidan keyin ham ikki yil davomida o'zi ishlatmagan, o'zi ko'rmagan o'sha millionlarni bankka to'lab yurdi.

Bugun kundalik hayotimizda tez-tez bir chiqiriqqa ko'zimiz tushadi: «Ogoh bo'ling, firibgarlar tuzog'iga tushmang!» Ammo xuddi bizga tegishli emasdek bu ogohlantirishlarga jiddiy e'tibor qaratmaymiz. Toki, o'sha xavf o'z uyimizga, ishxonamizga va yaqinlarimizning hayotiga suqilib kirib kelguniga qadar.

Xo'sh, kundalik hayotimizda uchrayotgan bu voqealar bizni nimaga chorlaydi? Qisqa qilib aytganda, har daqiqada sergak va ogoh bo'lish barobarida, kibermakonda «omon qolish» qoidalarini puxta o'zlashtirish hamda ularga kelgusida rioya etishga.

MUTAXASSIS QANDAY FIKRDA?



– Bugun avvalgidek kiberxavfsizlik deganda faqat kompyuterni virusdan himoya qilish yoki murakkab parollar qo'yish tushunchasi allaqachon eskirdi, – **deydi IIV Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'lim boshlig'i, kapitan Maqsudjon Mirabdullayev.** – Endilikda eng zaif nuqta – texnika emas, inson omili bo'lib qoldi. Firibgarlar doimo qo'rquv, vahima yoki tez bo'yib ketish istagi orqali odamlarning his-tuyg'ularini boshqarishga harakat qiladi. Bundan himoyalani uchun esa ba'zi muhim hayotiy qoidalarga amal qilish zarur.

Birinchi navbatda
«To'xta va tekshir!»

qoidasini har kim o'zining kundalik turmush tarziga kiritishi lozim. Har qanday shoshilinch yoki haddan tashqari foydali deb tuyulgan xabarni, hatto u yaqiningizning ovozida bo'lsa ham, boshqa manba yoki qayta qo'ng'iroq qilish orqali tekshirib ko'rish foydadan xoli bo'lmaydi.

Virtual olamda biometrik ma'lumotlarni ulashish, yuqori sifatli suratlar, ovozli xabarlar va videolarni shaxsiy profilarga haddan tashqari ko'p joylashtirish ham firibgarlar uchun soxta ovoz va video yaratishda bepul «xomashyo» vazifasini o'taydi. Chunki hozir telefoni va interneti bor har qanday insonning qiyofasini soxtalashtirish, uni tuzoqqa tushirish mushkul ish emas.

Sun'iy intellekt shunday darajaga yetdi, ki, ijtimoiy tarmoqda ko'rib turgan videodagi inson aslida o'sha kadrda umuman qatnashmagan bo'lishi mumkin. Ijtimoiy injeneriyaning oliy darajasi hisoblangan dipfeyk (deepfake) texnologiyasi yordamida yaratilgan soxta xabarlar jamiyatda nafaqat moliyaviy yo'qotishlarga, balki siyosiy beqarorlikka, ommaviy vahimaga sabab bo'lishi mumkin. Inson miyasi raqamli ma'lumotlar oqimining shiddati tufayli videoning haqiqiy yoki soxtaligini kritik tahlil qilishga ulgurmay qolmoqda.

Shunday bo'lsa-da, hozircha sun'iy intellekt ideal emas. Agar diqqat bilan qaralsa, dipfeyk videolarni aniqlashning bir nechta belgilari mavjud:

– **Notabiiy nigoh.** Bunday soxta videodagi inson tabiiy bo'lmagan tarzda kam ko'z qisadi yoki umuman qismaydi.

– **Sinxronlikning buzilishi.** Lab harakatlari va gapirilayotgan so'zlar bir-biriga mos kelmaydi.

– **Texnik nuqsonlar.** Iyak va bo'yin atrofidagi raqamli g'adir-budurliklar, ya'ni texnik shovqinlar ko'rinadi.

– **Nur aksi.** Ko'z qorachig'idagi yorug'lik aksi tabiiy bo'lmaydi yoki umuman ko'rinmaydi.

– **Mantiqsizlik.** Eng asosiysi, holatning mantiqsizligi ko'zga tashlanadi. Siz tanigan inson o'ziga xos bo'lmagan harakatlarni qiladi yoki kutilmagan mavzularda suhbatlashadi.

Bugungi axborot texnologiyalari olamida ijtimoiy tarmoqdagi akkauntlar insonning eng zaif nuqtasi hisoblanadi. Shu bois login-parollarni, telefoningizga kelgan SMS kodlarni hech kimga bermaslik kerak. O'zini bank xodimi, ichki ishlar xodimi yoki soliqchi deb tanishtirgan taqdirda ham hushyorlikni yo'qotmaslik zarur.

Qolaversa, noma'lum Apk fayllarni ochmaslik, ishonchsiz saytlarga kirmaslik va begona havolalarga bosmaslik kerak. Kiberolamdagi oddiy bir xato ertaga katta muammoga aylanishi mumkin.



Suratlar sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

XULOSA O'RNIDA

Xalqimiz tilida «Ko'zing bilan ko'rganingga ishon» degan ibratli ibora bor. Afsuski, biz yashayotgan yuksak texnologiyalar asrida bu purma'no jumla ham o'z kuchini yo'qotdi. Endi ko'zlarimiz ham, quloqlarimiz ham bizni osongina aldashi, aldovlar girdobiga ulotqirishi mumkin.

Zero, har qanday shubhali yangilikka, kutilmagan xabarga yoki vahimali qo'ng'iroqqa tanqidiy nazar bilan qarash – bugungi kunda o'zimizni, oilamizni va topgan-tutganimizni asrashning eng ishonchli qalqonidir.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.



Turizm maskani

PESHAG'ORDA BO'LGANMISIZ?

Zomin tumanidagi bu mashhur qishloqda Markaziy Osiyodagi eng katta g'or joylashgan.



Biz borgan Xo'jai Serob ota ziyoratgohi odamlar bilan gavjum. Kimdir shu yaqinda Peshag'or g'ori borligini aytib qoldi. Mashhur g'orni ko'rish ishtiyoqida piyoda yo'lga chiqdik.

Bir chaqirim chamasi yo'l yurgach, O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish agentligi hududiga kirib bordik. Qurg'oqchil va taqir adirlardan so'ng to'satdan paydo bo'lib qolgan yashil ma'vo – baland tog'lar, kulrang, vahimali qoyalar, bodom, pista, nama'taklar olami, yerda gillamdek to'shalgan ajriqzorlar xuddi ikki ummonni ajratib turuvchi tasmadek edi. Tosh yo'l ilondek buralib oldinga chorlaydi.

Oybek domla aytgan na'matakni ko'rdim: u shundoq qoya labida nafis chayqalib, mag'rur o'sardi. Kakliklarning bexavotir yurishi, ora-chorada «krrr» deb ovoz chiqarib qo'yishlari, ayniqsa, yovvoyi tabiat nimaligini bilmay o'sayotgan «zumner» avlod – bolalarimizga cheksiz hayrat ulashadi. Qoyatoshlar yergacha uzalib kelgandek, hamma yoq tosh, ammo o'simliklar, gullar, butalar shu qadar barq urib o'sganki, bu tabiiy hayot maromiga inson aralashgudek bo'lsa, albatta, putur yetishiga ishonchim komil.

Yo'lning oxiri yo'qdek. Horib-charchasak ham, olg'a intilamiz. Bosh uzra faqat osmon ko'rinib turadigan daralarga kirib qolamiz. Qo'rquv bosadi: bu

yog'i kun botar palla. Urgut tog'larida adashib qolgan «Tog'da o'sgan bola» hikoyasi to'qib chiqarilgan emas ekan-da, deyman o'zimga o'zim. Ammo hech qayerda jilg'a ko'rinmaydi. Bu yashillik, bu hayot qaynagan go'shaga faqat yomg'irlar onalik qilishiga ishongim kelmaydi.

Qoyatoshlar orasida ungurlar ko'p, sal qattarog'ini ko'rib qolsak, «G'or shumikan?» deymiz-u, yana olg'a bosamiz. Axir, jasur ajdodlarimiz Iskandar Zulqarnayn qo'shiniga hujum qilishda pistirma vazifasini o'tagan g'or bunday kichik bo'lishi mumkin emas.

Tog' yo'llarida yurishga moslanmagan oyoq kiyimlarimiz hammamizni battar horitdi. Yo'l rus ertaklaridagi kalava ipdek faqat oldinga imlaydi. Shu payt (baxtimizga!) yuk mashinasi kelib qoldi: usti odamlar bilan to'la. Hayhaylashib to'xtatib, bizni ham ola ketishni iltimos qildik. Haydovchi rozi bo'lib, tirkama eshigini ochganida, xuddi cho'kayotgan odamlar qutqaruv qayig'iga intilgandek shosha-pisha chiqib oldik. Ular ham g'orga ketayotgan qarindoshlar ekan. O'zbekchilimiz yaxshi-da, birpasda xuddi oldindan tanishlardek bo'lib oldik. Telefonlar ishga tushdi: kimdir nodir tabiatni, kimdir yuk mashinasidagi sayohatini muhrlashga kirishib ketdi. Usti ochiq yuk mashinasida

ketishning ham murakkabliklari bor. Olddan boxabar bo'lib turish kerak. Yo'lning yarmigacha tarvaqaylab o'sgan tikandor daraxtu butalar ayab o'tirmaydi. Darhol engashib, ularga chap berish lozim. Ammo bu sayohatning gashtini, zavq-u shavqini ta'riflash mushkul.

Qishloqdan 5 km masofada joylashgan Peshag'orga yetib keldik. Jami 133 ta pillapoyali tik zina va nihoyat g'orga eltdi. Manzilga yetib kelish bir mashaqqat bo'lsa, zinalardan ko'tarilish yana bir mushkulot bo'ldi.

G'or og'zi anchagina keng, ichkarilash uchun ensiz, tor yo'lakdan o'tishga to'g'ri keladi. Har qancha charchagan bo'lmaylik, navbatdagi sarguzashtga chog'landik. Bir kishi zo'rg'a sig'adigan tuynuk orqali ichkariga endik. Telefon fonari bir qadam oldinni bazo'r yoritadi. Dim va quyoshdan har tomonlama to'silgan g'orni charog'on qilish uchun maxsus yoritkichlar zarur. 250 metr yurish mumkin bo'lgan yo'lakni zo'rg'a 100 metrlar bosib o'tib, 10 metr diametrli eng katta qismiga kelib to'xtagach, ortga qaytdik.

G'orga eltuvchi pillapoyalar 2008-yilda Peshag'or qishlog'ida yashovchi Imomqul Jo'rayevning sa'y-harakati bilan bunyod bo'lgan. Ungacha g'orga ko'tarilish juda mashaqqat

edi. Bu yerdan olimlar, alpinistlar, ekstremal sayohatchilar arimaydi. Chunki g'or tarixiy manzil, uning oxiri tik qoyaga borib tugaydi. Eramizdan IV asr oldingi davrga oid sopol parchalari, uy-ro'zg'or buyumlari, suyaklar, qoyalarga bitilgan rasmlar va yozuvlar topilgani g'orning ilk uylardan biri bo'lganini isbotlaydi. Peshag'or so'zi «G'or etagidagi qishloq» ma'nosini bildiradi. G'or joylashgan shu nomdagi qishloq aholisi ko'pligi, boy tabiiy turizmi va qishloq xo'jaligi, chorvachiligi bilan viloyatda mashhur. Qishloqlik o'qituvchi Abdug'ani Mamatqulovning sa'y-harakati bilan Xo'jai Serob ota ziyoratgohida o'lkashunoslik muzeyi tashkil etilgan bo'lib, eksponatlar boyligi va qadimiyligi qishloqdoshlarning ahil va bir yoqadan bosh chiqarib harakat qiluvchi insonlar ekanidan dalolat beradi. Chunki zardushtiylik davriga oid ostadonlardan tortib, XX asr boshidagi uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-boshlarning yig'ilishida qishloqdagi hech bir oila chetda turmagan. G'or va tarixi juda qadim-qadimlarga borib taqaluvchi ushbu qishloq haqida A.Makedonskiyning «Jangnoma»si hamda Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»sida ham so'z yuritilgan.

Ammo shu sirli g'oraga ham zamonaviy odam oyog'i yetganiga «dalillar» bisyor – shisha sinig'i, chiqindilar, gulxan qoldig'i hamda petrogliflar yoniga bitilgan ismlar... Biz kabi manzilni bilmaydigan sayohatchilar uchun yo'lko'rsatkichlar qo'yilmagani, bexavotir sel-fi maydonlari yaratilmagani hamda turistlar oqimini ko'paytirishi mumkin bo'lgan usti ochiq transportlar xizmatining yo'qligi ham bir mavzu. Holbuki, O'zbekiston yovvoyi tabiatining bir qismi bo'lgan bu joylarni har qadamda uchratmaysiz. Uni yengil mashinada emas, piyoda yoki maxsus ulovlarda tomosha qilish sayohatdan kutiladigan maqsad – tabiat qo'ynida zavq olishni ta'minlaydi.

Ekoturizm ixlosmandlarini kundan-kunga xizmat narxi qimmatlab borayotgan mashhur go'shalariga emas, Markaziy Osiyodagi eng katta g'or hisoblangan Peshag'or, unga eltuvchi yolg'izoyoq yo'l bo'yidagi o'z qonuniyati asosida yashayotgan ona tabiat, moziy qa'ridan bugunga qadar yetib kelgan qishloq manzaralari ham asir qilishiga shubha yo'q.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



Бир сурат тарихи

ИШ ҚУРОЛИНГ СОЗ БЎЛСА...

Ушбу сурат 2005 йил 30 март куни бўлиб ўтган Ички ишлар вазирлиги Академиясининг Сержантлар таркибини тайёрлаш бўйича олий курслари тингловчиларининг тантанали битирув тадбирида олинган.

Суратда Мустақил Ўзбекистоннинг биринчи Ички ишлар вазири, генерал-полковник Зокиржон Алматов, Ички ишлар вазири ўринбосари, полковник Алишер Шарафутдинов ҳамда ИИБ Академияси бошлиғи, полковник Холмахамат Зокировлар акс этган.

Бугун бу суратга боқиб, айрим хотиралар ёдимга тушди.

Мархум полковник Х.Зокировни кўпчилик яхши инсон, талабчан ва адолатли раҳбар сифатида эслайди.

2003 йилларда полковник Холмахамат Зокиров Ички ишлар вазинининг ўринбосари – Шахсий таркиб билан ишлаш хизмати бошлиғи лавозимида хизмат қиларди.



Ўшанда Бирлашган таҳририятнинг ҳисобот йиғилишида иштирок этган вазир ўринбосари давр шиддат билан ривожланаётгани, журналистлар ҳам замон билан ҳамнафас бўлиши лозимлигини таъкидлаб, жамоа учун замонавий рақамли фотоаппарат ва бошқа зарур анжомлар харид қилиш бўйича масъулларга топшириқ берди.

Орадан бироз фурсат ўтиб, таҳририятимизга янги ва замонавий, рақамли фотоаппарат олинди.

Бу инсон кейинчалик ҳам қачон тадбирларда мени кўриб қолса, «Қандайсан, фотоаппаратинг яхши ишляптими?» деб сўраб қўярди. Мархум Х.Зокировнинг самимий инсон экани, ҳамкасблар ва шогирдларига бўлган меҳр-эътибори ҳақида бошқалардан ҳам кўп илиқ фикрларни эшитганман.

Бир сурат баҳонасида полковник Х.Зокировнинг порлоқ хотирасини ёд этдик. Аслида, у инсоннинг турли раҳбарлик лавозим-

ларидаги фаолияти давомида амалга оширган эзгу ишлари ҳақида кўп ва хўп айтсак арзийди...

Шу ўринда, генерал-полковник Зокиржон Алматов бугун Ички ишлар вазири маслаҳатчиси сифатида ички ишлар органлари фаолияти самардорлигини ошириш, ёш ходимларни ватанпарварлик ва

бурчга садоқат руҳида тарбиялаш ишларида фидойиларча хизмат қилиб келмоқда.

Истеъфодаги полковник Алишер Шарафутдинов эса Академия тингловчи-курсантларига таълим бериш билан бирга, илм йўлида изланиб, ички ишлар органлари фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича илмий тадқиқот ишларини олиб бормоқда.

Абу КЕНЖАЕВ,
фотомухбир.

Kitob javoningizga

«DUNYO MAMLAKATLARI» – BILIMLAR XAZINASI

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 22-maydagi farmoyishi bilan boshlangan yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan «Milliy kitobxonlik harakati» mamlakatimizda yangi ma'rifiy to'liqinni boshlab berdi.



Mamlakatimizning dunyodagi 170 ga yaqin davlat bilan diplomatik aloqalari va yaxshi qo'shnichilik tamoyillari kitobda chuqur tahlil qilingan. O'zbekistonning xalqaro xavfsizlik va hamkorlik yo'lidagi global faolligi muallif nazaridan chetda qolmagan. Xususan, kitobda vazirlikning xalqaro aloqalari haqida ham ma'lumotlar bor.

Jasorat va milliy g'urur

«Dunyo mamlakatlari» ensiklopediyasida o'zbek xalqining jahon tarixidagi betakror jasoratiga oid sahifalar ham borki, ular har bir vatandoshimiz qalbida milliy iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

Kitobda Ikkinchi jahon urushi davrida Italiyadagi partizanlik otryadlari tarkibida fashizmga qarshi mardonavor jang qilgan hamda asirlikdan qochgan yurtdoshlarimiz – Ahmed Mamajonov, Turg'un Qo'chqorov, Sharip Samadov va Oman Berdiyev kabi askarlarning qahramonliklari ham bayon etilgan.

Karrara shahrini ozod qilishdagi mislsiz jasorati uchun ular Rimda taniqli jamoat arbobi Palmiro Tolyatti tomonidan iliq qabul qilingan. Italiyalik yozuvchi Marta Tonjani o'zining «Qalb amri. Apuan qarshiligi» kitobida Ahmad Mamajonovni asosiy qahramon sifatida tasvirlagan bo'lsa, samarqandlik Sharip Samadovga italiyaliklar tomonidan «Aleksandr»

nomi berilgan. Bu tarixiy haqiqatlar ajdodlarimizning mardligi chegara bilmasligini yana bir bor isbotlaydi.

Osoyishtalik posbonlari

Kitobdan o'rin olgan dunyo mamlakatlarining ichki xavfsizlik tizimi va politsiya tuzilmalariga oid ma'lumotlar ham juda qiziqarlidir. Ensiklopediyada armiyasi mavjud bo'lmagan, barcha xavfsizlik va mudofaa vazifalari faqatgina politsiya xodimlari zimmasiga yuklatilgan davlatlar haqida noyob faktlar keltirilgan:

Andorra. Bu mamlakatning doimiy qurolli kuchlari mavjud emas, 700 yildan buyon hech kim bilan urush qilmagan. Barcha harbiy va xavfsizlik ishlari atigi 240 nafar zobitdan iborat politsiya tomonidan amalga oshiriladi.

Lixtenshteyn. Muntazam armiyasi yo'q. Mamlakat xavfsizligi va yo'l nazorati 1933-yilda tuzilgan, bor-yo'g'i 120 kishidan iborat davlat politsiyasi ta'minlaydi.

Kosta-Rika. Butun Amerika qit'asidagi yagona doimiy-neytral davlat bo'lib, u 1948-yildayoq armiyadan voz kechgan. Yagona kuch ishlatar tuzilmasi politsiyadir.

Monako. Ushbu knyazlikda 130 nafar harbiy xizmatchi va ulardan ko'proq – 207 nafar politsiya xodimi xizmat qiladi.

Grenada va Tuvalu. Grenadada armiya yo'q, mamlakatda tartibni

900 nafar politsiyachi saqlaydi. Tuvaluda esa muntazam armiya o'rniga 100 nafarga yaqin politsiya xodimi faoliyat yuritadi.

Vatikan. Dunyodagi eng o'ziga xos davlat. Xavfsizlik 1506-yilda tashkil etilgan Shveysar gvardiyasi va qayta tiklangan jandarmeriya (politsiya) tomonidan ta'minlanadi. Vatikan aholi soniga nisbatan dunyodagi eng harbiylashgan hudud hisoblanadi (aholisining 18 foizi xavfsizlik xizmatida, bu Shimoliy Koreyadan 3 barobar ko'p).

Qulaylik

Bugungi axborot texnologiyalari davri talablaridan kelib chiqib, kitobxonlarga katta qulaylik yaratildi. Kitobning to'liq elektron formatini Telegramdagi @kitobtargibot boti orqali o'qish imkoniyati yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, raqamli format o'quvchilari o'rtasida katta tanlov va qimmatbaho mukofotlar o'ynalishi ham e'lon qilingan.

«Dunyo mamlakatlari» ensiklopediyasi o'zining boy faktlari, tahlillari va tarixiy lavhalari bilan kitobxonning dunyoqarashini kengaytirib, bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Rushana ABDULLAYEVA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi.

Robototexnika

BIONIK DRONLAR

KELAJAK QUROLLARIMI?



O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining «Vatanparvar» gazetasi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda alohida o'ringa ega. Sahifamizda gazetada e'lon qilingan «Bionik dronlar kelajak qurollarimi?» nomli tahliliy maqolani mushtariylarimiz e'tiboriga havola etamiz.

XXI asr insoniyat taraqqiyoti tarixida eng shiddatli o'zgarishlar davri sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, robototexnika va avtomatlashtirilgan tizimlar jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda.

Bu o'zgarishlar, eng avvalo, harbiy sohaga ta'sir ko'rsatib, zamonaviy urush konsepsiyasini tubdan o'zgartirmoqda. Ana shunday innovatsion yo'nalishlar orasida bionik dronlar alohida o'rin tutadi. Ular tabiat va texnologiya uyg'unligida yaratilayotgan, kelajak qurollari sifatida e'tirof etilayotgan eng ilg'or ishlanmalardan biri hisoblanadi.

Bionik dronlar tushunchasi zamirida tabiatdagi tirik mavjudotlar harakatini texnika orqali takrorlash g'oyasi yotadi. Oddiy dronlar ko'pincha vintli harakatlanish mexanizmiga asoslangan bo'lsa, bionik dronlar qushlar, hasharotlar yoki boshqa jonotlarning uchish va harakatlanish uslubini imitatsiya qiladi. Shu sababli ular tashqi ko'rinish va harakat jihatidan tabiiy muhitga juda yaqin bo'ladi. Bu esa ularni aniqlashni qiyinlashtiradi va amaliy jihatdan katta ustunlik beradi. Ayniqsa, kuzatuv, razvedka va maxsus operatsiyalar jarayonida bunday texnologiyalar katta imkoniyatlar yaratadi.

Bionika fan sifatida tabiatdagi mexanizmlarni o'rganib, ularni texnika va muhandislik sohasida qo'llashni maqsad qiladi. Qushlarning parvozi, nina-chining havoda muallaq tura olishi, baliqlarning suvdagi tezkor harakati yoki hasharotlarning murakkab manovrlari — barchasi ilmiy tadqiqotlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. Ushbu tabiiy mexanizmlarning o'rganilishi natijasida bionik texnologiyalar shakllandi. Dastlab bu yo'nalish faqat ilmiy laboratoriyalar doirasida rivojlangan bo'lsa, keyinchalik sun'iy intellekt va mikroelektronika taraqqiyoti uni amaliy texnologiyaga aylantirdi.

Bionik dronlarning eng katta afzalliklaridan biri, ularning tabiiy muhitga moslashuvchanligidir. Ular harakatlanish jarayonida shovqinni minimal darajaga tushiradi,



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

energiyani tejaydi va uzoq muddat avtonom rejimda ishlay oladi.

Shuningdek, ular kichik hajmga ega bo'lgani sababli murakkab hududlarga kirib borish imkoniga ega. Bu esa ularni nafaqat harbiy sohada, balki qutqaruv operatsiyalari, ekologik monitoring va xavfsizlik tizimlarida ham qo'llash imkoniyatini kengaytiradi.

Bugungi kunda dunyo davlatlari bionik dronlar ustida faol ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. AQSH, Xitoy, Rossiya, Isroil, Janubiy Koreya kabi davlatlar bu yo'nalishni strategik ahamiyatga ega texnologiya sifatida ko'rib chiqmoqda. Ular kelajak urushlarida asosiy rol ni yirik armiyalar emas, balki kichik, aqlli va avtonom qurilmalar o'ynashi mum-

tizimlari o'rnatilishi mumkin.

Yana bir muhim yo'nalish — hasharotsimon mikrodronlar. Ularning o'lchami juda kichik bo'lib, ba'zi modellari inson ko'zi bilan aniqlash qiyin darajada ishlab chiqiladi. Ular ari, ninachi, kapalak yoki chivin shaklida bo'lishi mumkin. Bunday dronlar bino ichida kuzatuv olib borish, ma'lumot yig'ish, audio va video nazoratni amalga oshirishda qo'llaniladi. Ularning afzalligi shundaki, ular murakkab va cheklangan joylarga ham oson kirib bora oladi va yashirin holda ma'lumot to'playdi.

Texnologik rivojlanish bionik dronlarni yanada murakkab va intellektual tizimlarga aylantirmoqda. Sun'iy intellekt bilan integratsiya qilingan holda ular mustaqil qaror qabul qilish, muhitni tahlil qilish va vazifalarni avtomatik bajarish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Bu esa ularning qo'llanish doirasini yanada kengaytiradi.

Bionik dronlar faqat harbiy sohada emas, balki fuqarolik yo'nalishlarida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Qutqaruv operatsiyalarida qiyin hududlarni tekshirish, tabiiy ofatlardan keyin qidiruv ishlarini olib borish, ekologik nazorat va infratuzilma monitoringi kabi sohalarda ularning o'rni tobora ortib bormoqda. Shu ma'noda, bu texnologiyani faqat «qurol» sifatida emas, balki ko'p maqsadli innovatsion vosita sifatida ham baholash mumkin.

Umuman olganda, bionik dronlar insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab bermoqda. Ular kelajakda harbiy strategiyalar, xavfsizlik tizimlari va hatto kundalik hayotda ham muhim o'rin egallashi mumkin. Shu bois «Bionik dronlar kelajak qurollarimi?» degan savolga javob hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, bir narsa aniq: bu texnologiya insoniyatning texnologiyaga bo'lgan qarashini tubdan o'zgartirib yubormoqda va yangi davr eshigini ochmoqda.

Podpolkovnik A. FOZILOV, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug fakulteti kafedra boshlig'i.



Qo'shqanotlar

QAT'IYAT BOR JOYDA zafar quchiladi

Hayotning past-balandlarini birgalikda yengib, bir sohada yelkadosh bo'lib mehnat qilish oila mustahkamligini yanada kuchaytiradi. Yangiqo'rg'on tumani IIBda xizmat qilayotgan katta leytenantlar – Ahadjon Abdumajidov hamda Maftuna Ne'matovalar oilasi bugun nafaqat hamkasblariga, balki yosh oilalarga ham ibrat bo'lmoqda.

Maftuna Ne'matovaning ichki ishlar organi sohasiga kirib kelishi oson kechmagan. Qat'iyat va intilish tufayli u 2022-yilda IIV Akademiyasini muvaffaqiyatli tamomladi.

Bugun u Yangiqo'rg'on tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi tergovchisi lavozimida murakkab jinoyatlarni fosh etishmoqda. Xususan, bir tonna g'aynoli o'g'irligi bilan bog'liq jinoyat-

da sirli sherikni aniqlashi, shuningdek, voyaga yetmagan o'smir ishtirokidagi o'g'irlik ishida oila a'zolarining yashirin rolini ochib berishi uning nafaqat bilimlari, balki kuchli psixologik mahoratga ega ekanligidan dalolat beradi.

— Tergovchi ko'p mutolaa qilishi, dalillar bilan ishlashda esa o'ta sinchkov bo'lishi kerak. Bu tajribali ustozlarimdan olgan eng muhim o'git

va ish faoliyatidagi bosh mezonidir, — deydi Maftunaxon.

Oilaning boshlig'i Ahadjon Abdumajidov esa xizmat faoliyatini 2020-yilda profilaktika inspektori lavozimida boshlagan. Hozirda tuman IIB Kadrlar bilan ta'minlash guruhi katta inspektori lavozimida xizmat qilmoqda. Kadrlar bilan ishlashdek mas'uliyatli vazifada Ahadjon o'z tajribasi va intizomi bilan hamkasblari o'rtasida hurmat qozongan.

Ahadjonning otasi Abdug'ani aka pensiyada, onasi Umida opa esa maktabda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi. Ehtimol, oiladagi aynan shu ma'rifiy muhit Ahadjon va Maftunaning kitobga bo'lgan mehri, yuk-



sak ma'naviyatini shakllantirgandir.

Bu ikki ofitserning xonadondagi eng katta quvonchi shiringina o'g'li Nurmuhammaddir. Ishdagi tig'iz grafik, tergov jarayonlari va navbatchiliklarga qaramay, Maftuna uyda mehribon ona, sevimli rafika va mas'uliyatli kelin sifatida ham barchaga namuna bo'lib kelmoqda.

Orzular yo'li qanchalik mashaqqatli bo'lmasin,

qat'iyat va ishonch insonni maqsadga yetaklaydi. Muqaddas burchni yelkadosh bo'lib ado etayotgan bu ofitserlar oilasi — hayotda bir-biriga madad, Vatan xizmatida esa bir-biriga qanot bo'layotgan haqiqiy sadoqat va fidoyilik timsolidir.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

Bir jinoyat tafsiloti

«BUYURTMACHI» AMMA

Oila — mehr-muhabbat, ishonch va sabr-toqat bilan mustahkamlanadigan muqaddas qo'rg'on. Bu maskanda ba'zan kelishmovchiliklar, o'zaro tushunmovchiliklar ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday kezlarda esa oilani saqlab qolish uchun o'zaro murosai-madara eng maqbul yo'l hisoblanadi.

Zarafshon shahrida yashovchi Ozod va Zilola (ismlari o'zgartirildi) ham yaxshi niyatlar bilan ahd-u paymon qilishgan edi. To'ydan so'ng, oradan bir necha yil o'tdi. Ikki farzandlik ham bo'lishdi. Bora-bora ularning orasiga sovuqchilik tushib, tez-tez janjal chiqadigan bo'ldi.

Kun ora tortishuvlardan bezor bo'lgan Zilola oxiri ota uyiga ketib qoldi. Bu gap-so'zlar shundan keyin kelinning qarindoshlari qulog'iga ham borib yetdi. Kuyovning qiliqlari Zilolaning yaqinlari,

ayniqsa ammasining kuchli g'azabini qo'zg'atgan edi. Har gal ko'rishib qolganda: «Bunday erning boridan yo'g'i yaxshil» — deb tinimsiz Zilolaning qulog'iga quyardi.

U jiyanining baxtsizligiga sabab bo'lgan kuyovidan o'ch olishga qaror qiladi. Shu maqsadda ikki shaxsni yollab, kuyovto'raning aqlini kiritib qo'yishlarni so'raydi. Buning evaziga katta miqdorda pul berishga tayyor ekanligini aytadi. Haligi kishilar bilan telefon orqali suhbat-

larda suyuqlik jiyanining eri shu darajada kaltaklanishi kerakki, natijada aqldan ozib, keyinchalik vafot etishi lozimligini uqtiradi.

Mazkur holatdan xabar topgan viloyat IIB xodimlari suiqasd sahnasini tashkil etib, videotasmalarga muhrlab, ijtimoiy tarmoq orqali ayolga jo'natishadi. Jiyaniga mehribon amma videolavhalarni tomosha qilgach, mamnun bo'lib, buyurtmasi uchun kelishilgan 40 million so'mdan 2 million 300 ming so'mini yollangan shaxslarning plastik to'lov kartalariga o'tkazadi.

Navoiy viloyati IIB, Zarafshon shahar IIB hamda DXX Navoiy viloyati bo'yicha boshqarmasi xodimlari tomonidan olib borilgan tezkor tadbirlar davomida ayol jinoyat ustida ushlandi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining sinchkovligi va zukkoligi tufayli mudhish jinoyatning oldi olindi. Aks holda yosh yigitning umri esa xazon bo'lishi mumkin edi.

Ushbu holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda. Oilaviy kelishmovchiliklar har qancha og'ir va chigal bo'lmasin, ularni aql va sabr, murosai yo'li bilan hal etish eng to'g'ri yechimdir. Zero, jahlg'a berilish, g'azab otiga minish hech qachon yaxshilikka olib kelmagan, hamisha afsus-nadomatga sabab bo'lgan.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

Bu — qiziq

MARKO POLO TUFAYLI

O'rta asrlar Yevropasida muzqaymoqning paydo bo'lishida sayyoh Marko Poloning xizmati kattadir. U Sharq sayohatidan muzqaymoq tayyorlash reseptini ham olib kelgan. Qirollar saroyi oshxonalarida bu resept yanada takomillashtirilgan. Yevropadan hozirgiga o'xshash muzqaymoq tayyorlash sirlari Rossiyaga ham yoyilgan. Bunga podshoh saroyiga Yevropadan taklif etilgan oshpazlar sabab bo'lgan.

XIX asrga kelib sut mahsulotlarini ammiak, selitra, efir kabi moddalar yordamida muzlatishni kashf qilishgan. Muzxonalar paydo bo'lgach, muzqaymoq ancha arzonlashgan. Keyinroq muzqaymoq ishlab chiqaruvchi zavodlar paydo bo'lgan. XX asr boshlarida muzqaymoq tayyorlash texnologiyasi yanada takomillashgach, o'rta tabaqa vakillari ham bemalol muzqaymoqxo'rlik qilish imkoniyatiga ega bo'lishdi. 1921-yilda esa AQSHning Ayova shtatida yashovchi Xristian Nilson yog'och tayoqchadagi muzqaymoq — «eskimo-pay»ni kashf qildi. Eskimoni fransiyalik pishloq tayyorlovchi Sharl Jerve o'ylab topgan degan taxminlar ham bor.



Mutaxassis minbari

KASALLIKMI YOKI RUHIY
HOLAT?

Odatda biz zimmamizga kera-
gidan ortiq «yuk» olamiz. «Majbur-
man», «shart», «bajarishim kerak»
degan qat'iy tushunchalar bilan ya-
shaymiz. Lekin kun kelib o'zimizdan:
«Nega majburman? Kim uchun?» deb
so'rasak, aynan shu nuqtada ichki
yemirilish boshlanadi.

Tez orada «Hammasini talab qilin-
gandek bajardim-ku, nega baribir
yomonman?» degan og'riqli fikrlar
paydo bo'ladi. Inson o'zini ayblay
boshlaydi, nimanidir noto'g'ri qilgan-
dek tuyulaveradi. Buning oqibatida

san, yordam so'rashga rad etmaysan.
Chunki ichingni «odamlar nima dey-
di?», «rahbar urishmasin», «mukofot
pulidan quruq qolmay», «ishdan
bo'shatib yuborishmasin» degan
xavotirlar kemiradi. Axir, orqangda
oilang, farzandlaring va to'lanishi
kerak bo'lgan kreditlaring bor.

RAD ETA OLMASLIK BADALI

Shunday o'y-xayollar bilan as-
ta-sekin hamma yukni yolg'iz o'zingiz
ko'tarishga odatlanib qolasiz. Ammo
bir kun kelib atrofdagilar sizning bu fi-
dodorligingiz va yordamingizni oddiy
bir majburiyatdek qabul qila boshlay-

HAYOTDAN

ZAVQLANIB

YASHANG



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

kimdir vahimaga tushadi, kimdir
depressiyaga beriladi, kimdir stressni
ovqat yoki ichkilik bilan bosishga
urinadi, boshqalar esa o'zini jami-
yatdan butunlay yakkalaydi. Ba'zilar
hatto hayotdan voz kechish haqida
o'ylasa, yana kimdir bundan keyin
«qurbon» bo'lib yashamaslikka qat'iy
qaror qiladi.

«ODAMLAR NIMA DEYDI?»

Biz doim kimgadir yordam berish
kerakligi, aytilganini qilish shartligi
haqidagi andisha va «odamlar nima
deydi?» degan hadik bilan yashay-
miz. Bu holat o'qishda ham, oilada
ham, ishda ham birdek takrorlanadi.

«Yordam berishing kerak, oilani
boqishing, farzand tarbiyalashing
shart» deyishadi. Vaqtida aytilgan
«Biz sen uchun qancha narsa qil-
dik» degan gaplar esa keyinchalik
malomatga aylanadi. Ishxonada bor
kuching bilan ishlaysan, boshqalar-
ning o'rniga ham navbatchilik qila-

di. Siz rad eta olmaydigan odamga
aylanasiz. Agar «yo'q» desangiz,
go'yo bir lahzada «yomon odam»
bo'lib qoladigandek tuyulaveradi.

Emotsional kuyish birdan paydo
bo'lmaydi. U asta-sekin rivojlanib
boradi va yillar davomida hayot
tarzingizga, ruhiy holatingizga, jis-
moniy sog'lig'ingizga jiddiy salbiy
ta'sir o'tkazadi. Oxir-oqibat inson o'z
istaklarini unutib qo'yadi va ichida
«Men o'zim qayerdaman? Bu hayot-
da mening o'rnim bormi?» degan
og'ir savol tug'iladi.

EMOTSIONAL KUYISH

Emotsional kuyishning asosiy bel-
gilari:

Holdan toyish – jismoniy va
hissiy charchoq yuzaga keladi, inson
tez charchaydi, xotira va diqqat su-
sayadi, hatto kichik yuklamada ham
darmonsizlik seziladi. Oqibatda turli
somatic (jismoniy) kasalliklar bosh
ko'taradi.

Ishdagi samarasizlik – mehnat
faoliyatida sustkashlik davri boshla-
nadi, kasbga nisbatan hech qanday
xohish qolmaydi. Ish faqat «shunday
qilish kerak» degan majburiyat hissi
bilangina bajariladi.

Atrofdagilarga befarqlik –
hayot o'z jozibasini yo'qotadi, hech
narsa quvontirmaydi, har bir kun bir
xil va zerikarli o'tadi. Inson o'z ola-
miga yopilib oladi va bu holat vaqt
o'tib chuqur depressiyaga aylanishi
mumkin.

Statistikaga ko'ra, ayollar erkaklar-
ga qaraganda emotsional kuyishdan
ko'proq aziyat chekadi. Buning sa-
babi ularda kundalik uy-ro'zg'or va
ijtimoiy stress yuklamasining sezilarli
darajada ko'pligi bilan bog'liq.

MUAMMODAN CHIQISH
YO'LLARI

Emotsional kuyishdan chiqish va
hammasini izga solish uchun quyidagi
tavsiyalarga amal qiling:

**Toksik (zararli) odamlardan
uzoqlashing.** Agar ular bilan alo-
qani butunlay uzishning iloji bo'lmasa,
muloqot vaqtini imkon qadar
kamaytiring;

Salomatlikka e'tibor bering.
To'g'ri va sifatli ovqatlanishga harakat
qiling, vitamin hamda minerallarga
boy mahsulotlarni iste'mol qiling. Eng
muhammi, uyqu rejimini tiklang;

Raqamli detoks qiling. Tele-
fon va gadjetlarda kamroq vaqt
o'tkazing, miyani ortiqcha axborot
chiqindilari bilan to'ldirmaslikka
harakat qiling.

O'zingiz uchun vaqt ajrating.
Har kuni piyoda sayr qiling, tabiat
qo'yniga chiqing, suzish bilan shug'ul-
laning yoki o'zingizga yoqadigan
yangi hobbini toping.

O'zingizni qadrlang. Har bir
qilgan kichik ijobiy ishingiz uchun
o'zingizga rahmat ayting va o'zingizni
siylashni unutmang.

**Shaxsiy chegaralarni bel-
gilang.** Hammaga birdek yordam
berishga shoshilmang. O'z chega-
ralaringizni himoya qilishni va kerak
joyda «yo'q» deyishni mashq qiling.

Agar vaziyatdan yolg'iz chiqib
keta olmayotganingizni sezsangiz,
albatta mutaxassisa – psixolog yoki
psixoterapevtga murojaat qiling. Pro-
fessional suhbat va vaziyatni to'g'ri
tahlil qilish sizni bu inqirozdan tezroq
olib chiqadi.

Hayotdan zavqlanib yashang.
Zero, siz bu dunyoga faqat bir marta
kelasiz!

Nigina HAMRAYEVA,
Buxoro viloyati IIB Tibbiyot
bo'limi poliklinikasi
shifokor-psixiatri.

Biz unutayotgan
so'zlarPAKKA
MA'NOSINI
BILASIZMI?

**Tilimizda shunday so'zlar bor-
ki, ularni amaliyotda qo'llama-
ganimiz yoki kam ishlatganimiz
uchun ular ma'nosini ko'pchilik
tushunavermaydi. Shunday
so'zlardan biri – pakka so'zidir.**
«Pakka» so'zi o'zbek tilida bir
nechta ma'noni anglatadi. Eng
ko'p qo'llaniladigan ma'nolari
quyidagilardan iborat:

Jumladan, O'zbek tilining izohli
lug'atida «pakka»ga shunday ta'rif
berilgan. Birinchi, musobaqa va sport
o'yinlarida yetib borish yoki to'pla-
nish oldindan belgilangan joy, nuqta,
marra; finish.

U pakkaga birinchi bo'lib yetib kel-
di. Poygada qattiq zo'riqib chopgan
ot pakkaga yetganda sulayib qolar
emish. E.A'zam, («Kechikayotgan odam»).

Ikkinchi ma'nosi odamlar yig'iladi-
gan yoki to'planadigan joy. Odamlar-
ning doimiy uchrashadigan yoki vaqt
o'tkazadigan maskani. Masalan, futbol
ishqibozlari ham choyxonamizni pakka
qilib olishgan. («Sharq Yulduzi»).

Yana bir ma'nosi ishning oldindan
belgilab qo'yilgan chamasi; mo'ljal,
reja. Ishni pakkaga yetkazmoq. Har bir
ko'sak, hosil bergan har chigit Bizning
ko'zga ilashmasdan qolmaydi. Pak-
kasiga to'ldirmasdan tolmaydi Bizdagi
har xotin-qiz ham er yigit. (G'.G'ulom).

Pakkasiga yetmoq – oxirlab qolmoq,
poyoniga yetmoq. Umrim pakkasiga
yetay deganda, xudoning qahriga
uchradim, qizim. K.Yashin, (Hamza).

PAKANANING
PAKARINI
BILARMIDINGIZ?

O'zbek tilining izohli lug'atida
«pakar» so'ziga pakana deb ta'rif
berilgan.

– Bu jinqarcha ko'chatlarni ohak-
layman deb, belim qotib ketdi. Manavi
pakar engashmay, tik turib oqlasa,
men ikki bukilib oqlayapman! – dedi
uzun bo'yli yigit To'pponcha polvonga.
S.Ahmad. (Cho'l burguti).

Yuqoridagi ta'rifda pakardan ot
tarzida foydalanilgan bo'lsa, quyidagi
gaplarda bu so'zdan sifat ma'nosida
qo'llanilgan.

So'qmoq birdan ikkiga bo'lindi-yu,
biri sohil yoqalab ketgani, biri pakar
archalarni aylanib o'tib, pastlikka ket-
ganini ko'rdim. Hayallamay ikkinchi
so'qmoqqa tushdim. Sh.Xolmirzayev,
(Yo'llar, yo'ldoshlar). U pakar archa
ostiga – ko'rpa bo'lib to'qilgan nina-
barglar ustiga qafasni qo'ydi. Sh.Xol-
mirzayev, (Saylanma).

Shuhrat RO'ZIYEV
tayyorladi.



NONBEHI hidi

Hikoya

– Behi sotaman, shirin nonbehi. Olganlar darmonda olmaganlar armonda...

Erta tongdayoq ko'p qavatli uylar oldida, atrofga jar solayotgan bu odamning ovozi xayolimni buzdi.

– Nonbehi olaylik, dadajon! – derazadan pastga qaray boshladi qizim. – Huv pastda bir bobo behi sotyapti, olaqolaylik!

Jajji qizimning xarxashalaridan so'ng noiloj pastga tushdim. Bir aravaga behi ortib olgan otaxon atrofga ilhaq boqib turibdi. Sap-sariq bo'lib tovlanib turgan behilarning xush ifori darhol dimog'imga urildi. Naqadar xushbo'y hid. Butun vujudim jimirlab ketdi go'yo.

– Behilarni qayerdan oldingiz, otaxon? – so'radim qiziqsinib.

– O'z bog'imdan uzib keldim, bo'tam, birovning bog'idan olarmidim.

– Birovnikidan oldingiz demoqchimasman. Bozordan arzonarovga olib, bu yerga kelib qimmatga sotuvchi olg'irlar hozir ko'payib ketgan-da. Lekin siz haqiqiy bog'bon, mehnatkash odamga o'xshaysiz.

Otaxon bu gaplarimdan mamnun kulimsiradi.

– Gaping to'g'ri, bolam, shunaqa olibsotlarlar ham yo'q emas. Mehnat qilib, peshonasidan ter to'kmagan odam hech narsaning qadriga yetmaydi. Lekin mening mo'jazgina bog'im bor. Turli mevalardan baholiqudrat parvarish qilib, o'zimizdan ortganini shu yerga olib kelib sotaman.

Chol shunday dedi-yu, bir dona behi olib, qizalog'imning qo'liga tutqazib, peshonasidan mehr bilan o'pib qo'ydi. Otaxonning nurli yuzi, mehrli ko'zlari rahmatli bobomni yodimga soldi. Keyin beg'ubor bolaligimni eslay ketdim.

... Qishlog'imizda behisi yo'q hovlining o'zi yo'q edi. Ayniqsa, kuzakda qo'shnimiz Qumri holaning paxsa devori osha ko'chaga egilib pishadigan nonbehilarning xushbo'y hidi bu-

tun qishloqni tutib ketardi. O'shanda biz qishloq bolalari paxsa devorning ustida xuddi dor o'ynagan odamdek sakrab, nonbehilardan qo'ynimiz to'lguncha uzardik-da, kechgacha kavshanib yurardik. Mazasi tilni yo-

Momom shunday deya meni Qumri xolaning hovlisiga yetaklab kirdi.

– Qarang, Qumriniso, manavi tushmagur bolalik qilib behilaringizdan uzib, uyga ko'tarib kiribdi. Koyib-koyib, oldingizga olib chiqyapman.

Bu holni ko'rib, Qumri xola kulimsiradi.

– Ey, opaginam-ey, nima qipti uzib olgan bo'lsa. Uzayotganini ko'rganman. O'zim indamadim. Uyingizning shiftiga osib qo'ying, qishi bilan hidi taralib turadi.

Qumri xola qo'ynimdagiga qo'shib, yana bir chelak behini shoxlari bilan uzib, momomga tutqazdi.

– Shuncha behini yeb tugatarmidik. Xudo barakasini bersin.

Momom Qumri xola bergan behilarning shoxlariga ip o'tkazib, uyimiz shiftlariga osib qo'ydi.

radigan, hidlari ishtahani qitiqlaydigan behilarning totli ta'mi hali-hanuz og'zimdan ketmaydi.

Yosh bola emasmizmi, bo'yimiz yetadigan joylaridagi behilarni yeb bo'lgach, daraxtning eng tepasidagi shoxlariga qarab tosh otishni boshlardik. Shunday kunlarda Qumri xolaning jahli chiqardi.

– Tomorqamni toshga to'ldirib yubordilaring-ku, shumtakalar. Tosh otmasdan uzib olsalaring bo'lmaydimi?!

Ammo Qumri xola biror marta ham bizni haydab yubormas edi. O'z aybimizdan uyalib, o'zimiz juftakni rostlardik.

Bir gal nonbehilardan uzib, qo'ynimga to'ldirib, suyungancha uyga olib kiribman.

– Hoy bola, bu behini qayerdan olding? – momomning ko'zlari xavotirli boqdi.

– Anavi, anavi... Qumri holamning bog'idan, – dedim kalovlanib.

Halollikni e'zozlovchi momom qattiq ranjigandek boshini chayqadi.

– So'ramay yeganlaring yetmagan-day, endi qo'yningni to'ldirib uyga ham olib kelyapsanmi? Qumriniso bechora yolg'iz boshi bilan to'rt bolani bazo'r katta qilyapti. Bu behilar farzandlarining rizq-nasibasi. No-ma'qul ish qilibsizlar!



Abduvosit Sidiqov 1982-yilda Farg'ona viloyatining Rishton tumanidagi Qo'rg'oncha qishlog'ida tug'ilgan. 2000–2005-yillarda Farg'ona davlat universitetida tahsil olgan.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Birlashgan tahririyatining Farg'ona viloyati bo'yicha muxbiri lavozimida faoliyat ko'rsatadi.

O'tgan yillar davomida ijodkorning «Seni kutgan kunlarim», «Qo'rg'onchadan qiziq gaplar», «Olma yuzli qiz», «Qat'iyatli inson qissasi», «Qaldirg'ochlar qaytgan kun» deb nomlangan kitoblari nashr qilingan.

Oilali, uch nafar farzandi bor.

Ko'p qavatli uyda yashaganim bois beg'ubor damlarim o'tgan qishlog'im, undagi bog'larning xush iforini qo'msayveraman.

Kuzak chog'lari qishloqqa boranimda, o'sha paxsa devorlarga osilib pishib yotadigan nonbehilar



Suratlar sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

Nonbehilarning hidi bahorgacha uyimizni tark etmadi.

...Momom har yili kuzakda uyimiz shiftiga behi osib qo'yishni odat qilgandi.

– Behi – jannatning mevasi, – der edi doim. – Undan jannatning hidi keladi.

Bolalikning sho'x-shodon kunlarida nonbehilar yeb, oydin tunlari o'yimiz shiftiga ilingan behilarning xush iforidan mast bo'lib uxlab qoladigan kichkintoylar yillar o'tgani sayin ulg'ayib boraverdik. Hayot charxpalagi meni shaharga olib keldi.

sog'inchi dilimni o'rtaydi. Ular allaqachon o'tin bo'lib ketgan. Lekin o'rnini yangi nihollar egallagan.

Behi daraxti shoxida yurgan qishloq bolalari havasimni keltiraveradi. Ularda o'z bolaligimni ko'rgandek bo'laman. Afsus, beg'ubor damlarim aslo ortga qaytmaydi. Endi mehribon momom ham, behilarini hech qachon hech kimdan qizg'anmaydigan Qumri xola ham bu yorug' dunyoda yo'q. Biroq o'sha nonbehilarning xushbo'y hidi hamon dimog'imni qitiqlab, ularni yodimga soladi...

Sport, sport, sport

«MUNDIAL» NIMA DEGANI?

Shu kunlarda millionlab futbol ish-qibozlarining diqqat-e'tibori AQSH, Kanada va Meksika mezbonlik qilayotgan jahon chempionatiga qaratilgan. Ilk bor 48 ta milliy terma jamoa qatnashayotgan musobaqa tobora qizg'in tus olmoqda. Ahamiyatli jihati, mundialda ilk bor O'zbekiston milliy terma jamoasi ham ishtirok etmoqda.


Xo'sh, yuqorida tilga olganimiz «mundial» so'zining asl ma'nosi nima? Bu atama qachon paydo bo'lgan va qaysi tildan olingan?

«Mundial» so'zi lotincha «mundus» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «jahon», «dunyo» yoki «olamshumul» degan ma'nolarni anglatadi. Sportda, xususan, futbol olamida bu atama to'g'ridan-to'g'ri jahon chempionati tushunchasi bilan sinonim sifatida qo'llaniladi.

Mazkur ibora ilk bor 1930-yili Urugvayda o'tkazilgan tarixiy birinchi jahon chempionati afishalarida «Campeonato Mundial de Football» (Futbol bo'yicha jahon chempionati) shaklida ishlatilgan. Vaqt o'tib, bu

uzun nom qisqardi va mustaqil atamaga aylandi. 1982-yilgi Ispaniya mezbonlik qilgan jahon chempionatidan so'ng esa ommalashib ketdi. Hozirda ispan va lotin amerikaliklar jahon chempionatini qisqacha «El Mundial» deb atashadi.

Bugungi kunda «mundial» so'zi o'zbekistonlik futbol sharhlovchilari va sport jurnalistlari lug'atidan ham mustahkam o'rin olgan. «Jahon chempionati» birikmasini qayta-qayta takrorlamaslik, nutqni boyitib, unga o'ziga xos joziba berish uchun ushbu atama qulay sinonim vazifasini o'tamoqda.

BOSH HARF
BILANMI YOKI...

«Jahon chempionati» birikmasini jumla ichida bosh harf bilan yozish holatlari ko'p uchraydi. Biroq u turdosh ot (umumiy tushuncha) hisoblangani sababli, agar gap matnda umumiy ma'nodagi musobaqa haqida ketayotgan bo'lsa, kichik harf bilan yozilishi kerak. Masalan: «Futbol bo'yicha navbatdagi jahon chempionati juda qiziqarli o'tmoqda».

Shu bilan birga, ayrim rasmiy holatlarda muayyan bir turnirning maxsus nomi tarkibida kelsa, birikmadagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi. Masalan: «Xalqaro futbol federatsiyasi (FIFA) Jahon chempionati reglamentini e'lon qildi».

Xullas, odatiy matnlarda birikmani «jahon chempionati» shaklida, ya'ni kichik harf bilan yozish imlo qoidalariga to'liq mos keladi.

Kamol ABDULLAYEV

XALOKOV —
JAHON KUBOGI
G'OLIBI!

Xitoyning Guyyan shahrida bo'lib o'tgan boks bo'yicha Jahon kubogida Toshkent shahar IIBB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar batalyoni xodimi, kapitan Abdumalik Xalokov 60 kg vazn toifasida oltin medalga sazovor bo'ldi.

Bizning jamoa Jahon kubogida 4 ta oltin, 3 ta kumush va 4 ta bronza (jami 11 ta) medal bilan umumjamoa hisobida faxrli 3-o'rinni egalladi.

O'z muxbirimiz.

Futbol — butun dunyoda eng ommaviy va sevimli sport turi bo'lib, bejizga «millionlar o'yini» deb atalmaydi.

Futbol bo'yicha 2026-yilgi Jahon chempionati qit'alar, millatlar va yoshlarni birlashtiruvchi o'ziga xos bayram kayfiyatini ulashmoqda.

O'zbekiston terma jamoasini qo'llab-quvvatlash maqsadida poytaxtimizdagi «Milliy stadion»da katta futbol festivali tashkil etildi.

Ichki ishlar organlari xodimlari tadbirning tinch va xavfsiz o'tishini ta'minladilar.

FUTBOL —
BAYRAM,
STADION — XAVFSIZ!

Abu KENJAYEV olgan suratlar.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir

o'rinbosarlari

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV

mayor

Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir

Sarvar SOBIROV

Veb-dizaynerlar

Ilhom JUMANOV

Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Abror POYONOV

Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo'yicha:71-231-38-74;
97-420-89-24Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

460010860262877031101179003
STIR 200637499.Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.Manzilmiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.Buyurtma № 1830.
Bosilish — ofset usulida.
Bichimi — A3.
Hajmi — 6 bosma taboq.
49745 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda — 180.

Tashkilotlar uchun — 366.

Bosishga topshirish vaqti — 22.00.

Bosishga topshirildi — 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida

chop etildi.

Korxona manzili: 100206

Yunusobod tumani,

Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.